

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY-IQTISODIY FAKUL'TETI**

**IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT KAFEDRASI**

**ROBIDINOVA SHOXSANAM FARXODJON QIZI**

**O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY YANGILANISHIDA MUZEYLARNING  
TUTGAN O'RNI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Namangan – 2014**

## M U N D A R I J A

<b>Kirish .....</b>	<b>3-8</b>
<b>I BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLAR FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVI.</b>	
1.1. O‘zbekistonning ma'naviy yuksalishi va muzeylar taraqqiyoti.....	9-23
1.2. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylar va muzey ishi.....	23-36
<b>II BOB. MUZEYLAR - YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLARNING SHAKLLANTIRISH OMILI.</b>	
2.1. Muzeysenoslik istiqbollari va muzeylar faoliyatini rivojlantirish muammolari.....	37-48
2.2. Tarbiyaviy ishlar tizimida muzeylarning o`rni.....	48-62
Xulosa.....	63-65
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	66-68

## Kirish

**Mavzuning dolzarblii.** O’zbekistonda davlat mustaqilligi qo’lga kiritilgach, shu zaminda asrlar osha istiqomat qilib kelgan avlodu-ajdodlarimiz orzu-umidlari ro’yobga chiqa boshladi. Bu esa istiqlol yo’lida to’kilgan qutlug’ qonning natijasi, xalq yo’lining qaror topishi hamda adolatning tantansi bo’ldi.

O’zbekiston mustaqillikka erishganidan so’ng o’tgan yigirma uch yil ichida o’ta mashaqqatli va o’z o’rnida sharafli yo’lni bosib o’tdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O’z istiqlol va taraqqiyot yo’limiz – bu gul bilan qoplangan yo’l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo’lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo’lidir”, deb aytgan so’zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma’no borligini yana bir bor anglaymiz<sup>1</sup>.

O’zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog’lom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagagi PQ-2124-sonli “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi<sup>2</sup>.

Xalqimiz o’ziga xos taraqqiyot yo’lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga etib olishdek ezgu mavsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, ahloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, ahloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma`naviy, ahloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, buyuk siymolar bo’lmish ota-bobolarimiz qoldirgan ma`naviy merosni

<sup>1</sup> Karimov I. A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – B. 27.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ўшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга каратилган кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Туркистон. 2014. 8 февраль.

ta`lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish jamiyatimizning ahloqan barkamol a`zolarini shakllanishida samarali vositadir. Bu o'rinda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi. Respublikamiz Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998 yil 12 yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy axloqiy kamolotida tutgan o'rnini yanada oshirish maqsadida "O'zbekmuzey" jamg'armasi tuzildi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida ja'mi 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtda joylashgan. Shu bilan birgalikda o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarining uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradi. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga yetkazishning eng yetakchi vositalaridan hisoblanadi.

Yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli Temuriylar davri tarixi, qatag‘on qurbanlari xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyining ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko‘rsatib turgan barcha kattakichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston tarixi muzeyining qaytadan ochilishi, muzey ekspozitsiya zallarining yangi loyiha va rejalar asosida jihozlanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Barcha viloyat hududlarida joylashgan boshqa muzeylar faoliyatida ham yangilanish, yaxshilanish sari qadam qo‘yilayotgani sezilib turibdi.

Muzeylar faoliyatini yaqindan o‘rganish, ularning mazmun va ma’no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, xalq ommasi orasida keng targ‘ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning dolzarbliyi yana shunda ko`rinadiki, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muzeylar faoliyatini umumiy tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir.

Mustabid-sovet tuzumi davrida milliy-ma`naviy qadriyatlarning toptalishi, aholi o`rtasida ruhiy tushkunlikning yuzaga kelishi, muzeylarga rahbarlik qilishdagi ma`muriy usullarning yanada takomillasha borishi mexanizmini ilmiy jihatdan tahlil etish hozirgi kun madaniy-ma`naviy jarayonlari uchun juda zarur, bu esa mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi deb hisoblaymiz.

**Mavzuning o`rganish darjasи.** Mustaqil O‘zbekistonda muzeyshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili, muzeylarni qayta qurish, yangilarini yaratish bo`yicha olib borilgan bunyodkorlik ishlarini umumlashtiruvchi fundamental tadqiqot ishlari u qadar ko`p amalga oshirilmagan. Muzeylar tarixiga oid adabiyotlarni ikki guruhga bo`lib tahlil etish maqsadga muvofiqdir:

Birinchi guruhga oid sovetlar davri adabiyotlari mohiyati va mazmuniga ko`ra kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtai nazardan yondashilganligi bilan xarakterlanadi.

Bu davrdagi Turkiston madaniyatiga oid asosiy adabiyotlar V.V.Bartol'd, B.V.Lunin, A.A.Semenov va boshqalar tomonidan tahlil etilgan.

1917 yilga qadar Turkistonda tashkil etilgan turli ko`rgazmalar va ularning yangi muzeylar vujudga kelishidagi ahamiyati G.N. Chabrov tomonidan tadqiq qilingan.

Uning asarida har bir ko`rgazma ekspozitsiyasi atroflicha tavsiflanib, mustamlaka ma`murlari va savdo-sanoat doiralarining undan ko`zlangan maqsadlari olib berilgan.<sup>3</sup>Taniqli olim Ya.G'ulomov<sup>4</sup> tomonidan yozilgan asarda O`zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash va muhofaza qilish masalalari o`z ifodasini topgan.

Sovetlar hukmronligi davrida O`zbekiston muzeylarining tashkil etilishi va faoliyati bo`yicha mavjud adabiyotlar kommunistik mafkura asosida, aksariyat hollarda ma`lum yubiley sanalariga bag`ishlab yozilgani ma`lum. Jumladan, M.S.Yusupov risolasini<sup>5</sup> keltirish mumkin. Respublikadagi muzeylar va muzeishunoslikka oid tadqiqotlar orasida N.Sodiqovaning asarlari<sup>6</sup> alohida ajralib turadi. Ulardagi davr talabiga ko`ra kiritilgan mafkuraviy jihatlarni hisobga olmaganda, O`zbekistonda muzey ishining deyarli bir asr davomidagi taraqqiyoti, yutuqlari va muammolari atroflicha o`rganilgan.

Sovetlar hukmronligi davrida yozilgan adabiyotlarning mualliflari asosiy e'tiborni «sotsializm g'alabasi» uning targ'ibot ishlariga qaratganlar.

O`zbekiston muzeylarining mustaqillik davridagi faoliyati va taraqqiyoti bo`yicha bugungi kungacha umumlashtiruvchi asarlar deyarli mavjud emas.

---

<sup>3</sup>Чабров. Г.Н. Воставочная работа в Туркестанском крае (1865-1916 гг) Трудо Музея истории Узбекистана, воп.3.-С.118-135

<sup>4</sup>G'ulomov Ya. O`zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o`rganish yo`llari.-Toshkent:1934. –В. 120.

<sup>5</sup>Юсупов М.С. 50 лет Самарканского музея (1896-1946)-Самарканда 194 –С.58

<sup>6</sup> Садикова Н Музейного дела в Узбекистане-Тошкент: Фан, 1975-290с; историография и источники по музейному строительству.-Т.: Фан, 1987. –Б. 98.

M.Bekmuradov, G.Rashidova, R.Al'meev, L.Man'kovskaya, D.Kuryazova, G.Fuzailova, M.Xasanova, I.Inamov<sup>7</sup> va boshqalar yaratgan, o'zbek ham rus tillarda nashr etilgan maqola, o'quv qo'llanma va asarlarda mustaqillik davridagi muzeylar faoliyati ayrim tomonlari o'r ganilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, B.Davletov, O.Ibragimovlarning hamkorlikda nashrga tayyorlagan risolasi<sup>8</sup> hozirgi kunda o'zbek muzeishunosligi fanida dastlabki qo'yilgan qadam sifatida muzey atamashunosligini o'r ganish uchun yaxshi manbadir. Sh.O'ljayevaning «Muzeishunoslik» o'quv qo'llanmasi<sup>9</sup> ham mustaqillik yillarda muzey ishi, tarixini umumiylarini o'r ganish uchun qo'yilgan qadamdir. Mavzuni yoritishda ushbu yaratilgan nashrlardan foydalanishga harakat qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Yuqorida keltirib o'tilan fikrlar ilmiy ish mavzusining g'oyat dolzarbligidan dalolat beradi. Malakaviy ishning maqsadi ham ana shulardan kelib chiqadi. Ushbu tadqiqot o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

✓ Respublikamizda muzeylarning tashkil topish tarixi, ularni tashkil etishda mahalliy to'plovchi-yig'uvchilarning o'rni masalasini ko'rib chiqish;

✓muzeyga to'plangan ashyolarning mazmun va ma'no jihatdan umumlashtirilishini o'r ganib chiqish;

✓muzeylar tuzilishi uslubiyati, muzeylarning yig'uv-to'plov, ilmiy sharhlov hamda noshirlik faoliyatining ilmiy asoslarini tahlil qilish;

✓muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish va takomillashtirish, ularni targ'ib va tashviq qilishda muzey xodimlarining nutq mahoratini belgilash;

✓Muzey xazina-fondida saqlanayotgan noyob-nodir eksponatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini ko`rsatish;

---

<sup>7</sup> Sodiqova N Madaniy yodgorliklar xazinasi -T.: Fan, 1995. -B. 42.

<sup>8</sup> Bekmuradov M., Rashidova M Muzeishunoslik. -T.: Voris Ali, 2006-102b; Al'meev R. Buxoro gorod muzey.-T: Fan, 1999. -B. 205; Man'kovskaya L.YO. Buxara: Музей под открытым небом. -T.: Гафура Гуляма, 1995-255 ш; Kuryazova D. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San'at 2010-153b; Fuznilova G. Hasanova Muzeivedenie-Toshkent: Fan, 2008-192 s; Inamova I Muzeivedenie. -T.: Musiqa, 2006-357 s.

<sup>9</sup> O'ljayeva Sh Muzeishunoslik (o'quv qo'llanma). -T.: 2002.

✓bozor iqtisodiyoti sharoitida muzey ishlarini yangi shakl va uslublardan foydalanish evaziga jonlantirib borish kabi xilma-xil vazifalarni bajarishga ko‘nikma hosil qilinishi uchun muzeylar faoliyati bilan qiziquvchilarga keng va ilmiy asosda bilim berilishi nazorat qilish va tashkil etishni o‘rganadi.

**Mavzuning nazariy-uslubiy asosi**-muzey faoliyati to`g’risida sovet mustabid tuzumi davrida ro`y bergen voqeа hamda hodisalarga dialektik munosabat, ilmiy tahlil, holislik, tarixiylik-ilmiylik mavzuning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi.

Prezident Islom Karimovning asarlari, ayniqsa «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», «Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch» kitoblari va nutqlarida bildirilgan fikrlar muammoni o`rganishda nazariy asos bo`ldi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi 2 bob, 4 bo`lim, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLAR FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVI**

### **1.1. O‘zbekistonning ma’naviy yuksalishi va muzeylar taraqqiyoti**

Hozirgi kunda jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalq maorifida muzeylarning o’rni tabora o’sib bormoqda. Mustaqillik tufayli respublikamizda muzeylarga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi. Xususan, keyingi 10 yil ichida Davlat qarmog‘idagi muzeylar soni 140 tani tashkil etdi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, O‘lkashunoslik muzeylari 23 ta, Badiiy San’at Koshonalar 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Ayni paytda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud.

Inson tinimsiz go‘zallikka intiladi, go‘zallikni ijod qilmasdan, undan ma’naviy-ruhiy zavq olmasdan va shu orqali o‘z turmushini bezatmasdan yashay olmaydi.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o‘zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o‘zida aks ettiruvchi amaliy san’at asarlarini yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo‘lgan xalq amaliy san’at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo‘lib o‘tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi.

Jamiyatni ma’naviy-axloqiy kamolga yetkazishga keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muzeylarning katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari, Madaniyat va sport ishlari va Xalq ta’limi Vazirligining 2002 yil iyun oyida qabul qilingan Respublika Oliy va o‘rtalik maxsus, kasb-hunar va umumiyoq o‘rtalik muassasalari o‘quvchi va yoshlari o‘rtasida ma’naviy ma’rifiy ishlarni kuchaytirish to‘g‘risidagi qo‘sishma buyruqlari va shu asosda viloyat hokimligining qaror, tadbir-rejalari va ko‘rsatmalari muzeylar va o‘quv yurtlari o‘rtasidagi mustahkam aloqa o‘rnatish, hamda madaniy ma’rifiy ishlarni hamkorlikda olib borishga keng

imkoniyatlar yaratib berdi. Respublikamiz bo‘ylab bir qator yangi muzeylar tashkil etildi. Jumladan, 1996 yil 18 oktyabrda Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy va ma'naviy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazi bo‘lib qoldi. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo‘lib, Temuriylar davri ruhini beradi. Muzeyga qo‘yilgan tilla buyumlar, qurol-aslahalar, lashkarboshi va oddiy jangchilarining kiyim - boshlari, musiqa asboblari, o‘sha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo‘lyozmalari, Ulug‘bekning astronomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir.

1996 yilning 1 sentyabrida Toshkentda yana bir Osiyoda noyob va yagona bo‘lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey o‘zbekistonlik sportchilarining turli jahon musobaqalarida qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini, medallarini faqat namoyish etadigan joygina bo‘lib qolmay, balki mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi ham bo‘lib qoldi.

Bu muzeylardan oldinroq, mustaqilligimizning dastlabki yillarda bir qator yangi muzeylar ochilgan edi. Chunonchi, 1992 yil may oyida Namanganda ulug‘ o‘zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi ochildi. 1992 yil sentyabrdra Xorazm viloyatining Xonqa tumanida milliy mumtoz musiqa va kuylarning mashhur ijrochisi, Xorazm hofizlar maktabining asoschisi Xojixon Boltaboev nomidagi o‘ziga xos noyob maqomchilar muzeyi tashkil etildi. Urganchda shu oyda esa qadimgi Xorazm Amaliy san'ati va tarixi muzeyi ochildi. Bu muzey ekspozitsiyalarini uch mingga yaqin turli eksponatlar tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy-joy anjomlari, tikuvchilik va gilam mahsulotlari, idish - tovoqlar, mehnat qurollari tashkil etadi.

1992 yil noyabr oyida Buxoroda O‘zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi. 1992 yil dekabrdra Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoир Nazar o‘g‘lining Uy-muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi. 1993 yil 3 sentyabrdra Toshkentda o‘zbek ayollari ichidan chiqqan birinchi huquqshunos olima akademik Xadicha Sulaymonova

muzeyi ochildi. 1993 yil 1 sentyabrda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Politexnika muzeyi ochildi. 10 sentyabrda Toshkentda o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboeva muzeyi, 21 sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho‘pon, ikki marta Mehnat qahramoni, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimanovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muzey faoliyat boshladi. Shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O‘zbekiston Xalq ta’limi tarixi muzeyi o‘z muxlislarini kutib oldi.

1994 yil may oyida Toshkent shahrida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti muzeyi, oktyabrda O‘zbekiston xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov va uning o‘g‘li Akbar Rahimovlarning ko‘rgazmali muzeyi ochildi. Toshkentda 1996 yil mayida O‘zbekiston gidrometeorologiya xizmati muzeyi ishga tushdi. Shu yilning 30 noyabrida Toshkentda ochilgan qimmatbaho qog‘ozlar bozori tarixi muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar birinchi marta turli davrlarga sayohat qilish sharafiga tuyassar bo‘ldilar.

1997 yil oktyabr oyida Buxoroda mashhur buxorolik zarb qiluvchi usta Salim Hamidov muzeyi ochildi.

Ma'lumki, tarix muzeylari xalq xotirasining ifodasi hisoblanadi. 1999 yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda qatag‘on qurbanlari xotirasini abadiylashtirish va “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasini barpo etishga qaror qilindi va bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Milliy mustaqillik, Vatan ravnaqi, yurt ozodligi uchun jonini fido qilgan el o‘g‘lonlarining qutlug‘ xotirasiga poytaxtda muazzam hiyobon barpo etildi. Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan va 2002 yil 1 avgustda – qatag‘on qurbanlarini yod etish kunida ochilgan “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi quruvchilar, me’morlar va tarixchi olimlarning ulkan mehnati mahsuli bo‘ldi. Xalqimizning milliy qadr-qimmati tiklanishiga, o‘zligini qaytadan namoyon etishga istiqlol yo‘l ochdi va biz ona Vatanimiz va xalqimiz tarixi bilan faxrlanish, o‘tgan ajdodlarimizning qutlug‘ xotirasini e’zozlashdek

yuksak insoniy-ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'ldik. Majmua qay tarzda dunyoga kelganligi va muzey aynan shu joyga mo'ljallanganligi to'g'risida "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi raisi Naim Karimovning keltirgan manbalaridan quyidagilar ayon bo'ladi: Bugun ko'rkan ziyoratgoh barpo etilgan joylar XX asrning qariyb 80-yillariga qadar Toshkentning eng pastqam, xilvat go'shasi bo'lgan. Bu yerdagi birdan-bir inshoot "Alvasti ko'prik" deb nomlangan. Xuddi shu yerning 20-yillar adog'idan boshlab mustabid davlatga qatag'on o'rnida xizmat qilgani ham tasodifiy emas. Mutaxassislarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 20-40-yillar orasida bu yerda uchta qatlgoh bo'lgan. Ularning biri – televizion minoraning Ishchilar shaharchasi tomon tushgan "oyog'i" atrofida, ikkinchisi ziyoratgohning yuqori tarafida, nihoyat, uchinchisi "Abraziv" zavodining o'rnida bo'lgan. Shu tarzda Yunusobod qariyb yarim asr mobaynida xalqimiz tarixidagi eng dahshatli voqyealarning tilsiz guvohiga aylangan.

Muzeyda istiqlol yillarda ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash bo'yicha olib borilgan katta va muhim ishlar alohida ekspozitsiyalarda aks etgan. Bu ekspozitsiyalarning joylashishi va ularni ko'z qorachig'iday saqlashda qanday texnologiyalardan foydalanilayotgani juda muhimdir<sup>10</sup>.

Shahid ketgan ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan, g'oyat qisqa muddatda qad rostlagan yodgorlik majmui va muzeyi aynan shu joyda – ko'p-ko'p tarixiy voqyealarga guvoh bo'lgan qadimiyl Bo'zsuv sohilida bejiz barpo etilgani yo'q.

Muzeyga kiraverishda mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning "Mustabid tuzum davrida million-million begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, qancha-qancha go'daklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hyech qachon unutmaydi" degan so'zlari yozilgan.

---

<sup>10</sup> Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. –B.59.

130 yil davom etgan mustamlakachilik yillarida Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan ajdodlarimizning porloq xotirasi ana shu yodgorlikda o‘z abadiyatini topdi<sup>11</sup>.

Shu tarixiy kundan bir yil avval O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mustamlakachilik davrida milliy istiqlol va taraqqiyot yo‘lidagi intilishlari uchun nohaq ayblanib, turli jazo va tazyiqlarga mahkum etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish yuzasidan amaliy ishlar olib borish uchun Jamoatchilik komissiyasi tuzilgan edi. 1999 yil 22 iyul kuni esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib va unda Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv qirg‘og‘ida Mustamlakachilik davri qurbonlari yodgorlik majmuini barpo etish hamda “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi tuzish lozimligi qayd etilgan edi.

Qatag‘onlarni xotirlash va e’zozlash, xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan ajdodlarimizning porloq xotirasini tiklash maqsadida 2002 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi. Bu ham bo‘lsa tarixiy o‘tmishimizga bo‘lan hukumatimizning e’tibori va Prezidentimizning tashabbuslari edi.

Bugungi kunda respublikaning katta va kichik shaharlarida, tumanlarida xalqning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish qiluvchi 510 dan ziyod muzeylar ishlab turibdi. Jamiyatni ma’naviy-axloqiy kamolga yetkazishda, keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni ma’rifatli qilishda muzeylarning roli katta ahamiyat kasb etmoqda.

Qariyb 23 yil muqaddam mustaqillikni qo‘lga kiritgan xalqimiz o‘zanini topgan daryo misoli ruhan to‘lqinlanib, istiqlol yo‘lidan olg‘a intilmoqda. O‘z davlatiga, taqdiriga, tarixiga ega bo‘lgan yurt qisqa vaqt ichida asrlarga tatigulik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligini jahon hamjamiyati e’tirof etmoqda, mamlakatimiz fuqorolari har kunlik hayotida o‘z ko‘zлari bilan ko‘rib g‘urur to‘la qalblari ila sezib turishibdi.

---

<sup>11</sup>Mirzaaliyev E. Axmadaliyeva L. Millat qiyofasining ko`zgusi // Iqtisodiyot va soliq. 2009 yil. 20 may.

Darhaqiqat, boy tabiiy-iqtisodiy, tarixiy-ma'naviy, aql-zakovat salohiyati, eng muhimi sabr-bardoshli, diyonatli, vatanparvar va millatparvar, mehnatkash va bag'ri keng, diyonatli xalqi bo'lgan mustaqil O'zbekiston bugun rivojlangan davlatlar orasida munosib o'rin egallamoqda. Bu hayratomuz yutuqlarga eng avvalo xalqning azaliy orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini tom ma'noda ifodalovchi va har tomonlama himoya qiluvchi, ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixiy tajriba va ma'naviy merosga tayangan mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tamoyillari mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, «...tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi»<sup>12</sup>.

Shundan kelib chiqib, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, xalqimizning boy merosini o'rganish, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlari va obro'-e'tiborini qayta tiklash va shu negizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishi va vazifasi darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, diyorimiz jahon tarixi va sivilizatsiyasining eng qadimiy maskanlari va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab beba ho arxeologik me'moriy va yozma yodgorlik, amaliy san'at va xalq ijodiyoti namunalari - bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy ma'naviy merosidir. Ana shu merosni o'rganish, uni avaylab asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish biz, zamondoshlarning sharafli va ma'suliyatli burchimiz va vazifamizdir.

«O'zbek xalqi yaratgan va milliy bisotimiz bo'lib qolgan noyob tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va ta'mirlash- ma'naviy dasturimizning juda muhim qismidir. Ushbu milliy boylik bizga ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan, binobarin, biz uni ko'z qorachig'idek avaylab asrashimiz va kelajak avlodlarga

---

<sup>12</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T.: O'zbekiston. 1998.

topshirishimiz lozim», - dedi Prezident I.Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida so‘zlagan nutqida.

Darhaqiqat, respublikamizda 7 mingdan ko‘proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me’moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi, 1800 dan ko‘proq monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning barcha mintaqalarida, hatto olis tumanlarida ayrim yodgorliklarni nurashdan saqlash va ta’mirlashdan ilmiy tadqiqot ishlari asosida butun-butun me’moriy majmualarni va ko‘hna shaharlarning tarixiy markazlarini qayta tiklashga o‘tildi.

Mamalakatimiz madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish sohasining huquqiy asoslari yaratilgan – «Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to‘g‘risida», «Me’morchilik va shaharsozlik to‘g‘risida» gi qonunlar amal qilmoqda. Bu yodgorliklarning taqdiri bilan bog‘liq barcha masalalar mazkur qonunlarga asosan tartibga solib turiladi. Noyob me’morchilik – shaharsozlik merosini saqlab qolish va avaylab asrash maqsadida 2000 yil 26 aprelda «O‘zbekiston Respublikasida me’morchilik va shaharsozlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

O‘tgan yillar davomida olib borilgan me’moriy-tiklash ishlari natijasida Samarqandning Registon maydonidagi majmua yodgorliklari, Shohizinda, Bibixonim me’moriy majmualari, Amir Temur maqbarasi, Ruhobod majmuasi, Imam al-Buxoriy yodgorligi, Buxorodagi Kalon minorasi va masjidi, Mirarab madrasasi, Labihovuz majmuasi, Ulug‘bek va Abdulazizzon madrasalari, avdo gumbazlari, shahar tashqarisidagi Sitorai Mohixosa ansambli va Bahouddin Naqshband majmuasi, Xivaning Ichan qal’asidagi barcha me’moriy yodgorliklar, shu jumladan Ko‘hna ark, Muhammad Aminxon madrasasi va masjidi, Islomxo‘ja minorasi, Dor-us-tilovat ansambllari va Temurning mashhur Oq saroyi, Termizdagagi Hakim at-Termiziy me’moriy yodgorligi va boshqa obidalar saqlab qolindi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining Xiva ichki shahri «Ichan qal'a» ni Davlat me'moriy qo‘riqxonasi deb e'lon qilish haqidagi qarori yodgorliklarni muhofaza qilish va ular atrofidagi muhitni saqlash ishi muhim voqyeadir. Qo‘riqxona hududi hozirgi mavjud qal'a devorlari doirasida belgilanib, tarixiy, badiiy va me'moriy qimmatga ega bo‘lgan barcha majmualarni o‘z ichiga oladi. Xivadagi ijobiy tajribadan foydalanib, Buxoro va Samarqand shaharlarining tarixan tarkib topgan markazlari ham tarixiy-me'moriy qo‘riqxonalar deb e'lon qilindi. Zamonaviy yangi shaharlar gurkirab o‘sib borayotganligi munosabati bilan O‘zbekistonning eng qadimi shaharlarini batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrисabz, Toshkent shaharlari uchun shunday loyihalar ishlab chiqilib, muhofaza qilinadigan, tartibga solinadigan hududlarning chegaralari aniq belgilab qo‘yildi. Respublikadagi mutaxassis olimlar va xalq ustalarining yuksak ilmiy salohiyati va mohirona mehnati tufayli shunday ishlarni amalga oshirish imkoniyati tug‘ildi.

O‘zbekistonning me'moriy yodgorliklarga boy o‘nta shahri tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritilgan. «Ichan qal'a» qo‘riqxonasidagi yodgorliklar 1991 yildan, Buxoro markazidagi yodgorliklar esa 1993 yildan Jahon Xalqaro Madaniy Merosi Ro‘yxatida turadi. Hozirgi vaqtida Jahon Merosi qo‘mitasiga Shahrисabzdagi Temuriylar davri me'morchilik yodgorliklariga oid hujjatlar topshirildi. Samarqand shahri yodgorliklariga doir hujjatlar esa tayyorlandi. Bundan tashqari 26 ta nodir obida: Oq Ostona Bobo, Arab ota, Ishratxona, Mir Said Bahrom maqbaralari, Bahouddin Naqshbandiy, Chor Bakr, Shayx Muxtor Vali, Hakim at-Termiziy va boshqa yodgorliklarga doir dastlabki talabnomalar ham taqdim etilgan. Keyingi bir qancha yil mobaynida ta'mirlash ishlariga davlat avvalgi o‘n yilliklardan qilingan harajatlardan bir necha baravar ko‘p mablag‘ ajratdi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning buyuk bobokalonlarimiz al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi tavallud sanalarini, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi va «Alpomish» eposi yaratilganligining 1000 yilligini nishonlashga oid takliflari

YuNeSKO tomonidan ma'qullanib, mazkur qutlug‘ sanalar jahon miqyosida nishonlandi. Bu esa xalqimizning ijod, tarixiy rivojlanish jarayonida dunyo tarixiga va umuminsoniy sivilizatsiyaga qo‘shtgan ulkan hissasi xalqaro hamjamiyat tomonidan zo‘r ehtirom bilan e’tirof etilayotganligidan yorqin dalolatdir. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ushbu tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish davomida o‘sha davrlarga taalluqli tarixiy yodgorliklar va me’moriy obidalar qayta ta’mirlanibgina qolmasdan, milliy an'analar bilan sug‘orilgan ko‘plab ajoyib zamonaviy me’moriy majmualar va monumental asarlar bунyod etildi. Shuningdek keyingi yillarda O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovning tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan bir qator me’moriy xotira majmualari barpo etildi, ular shaharlarimiz chiroyini tanib bo‘lmas darajada ochib yubordi, madaniy merosimizni boyitdi va o‘zining buyuk kelajagini yaratayotgan mustaqil davlatimiz, jamiyatimiz ma’naviy kamoloti yo‘lidagi yangi bosqichning ravshan guvohi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Muzeylar ijtimoiy hayotda o‘ziga xos o‘ringa ega. Kishilar uchun eng avvalo ma'rifiy-madaniy, ilmiy va dam olish maskani bo‘lgan muzeylarni o‘tmish va hozirgi hayotimizning oynasi deyish mumkin<sup>13</sup>. Keyingi yillarda barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalar jadal suratlarda kirib kelmoqda. Bu esa ushbu sohalarning zamon bilan hamnafas taraqqiy etishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Jumladan, muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muzeylar taraqqiyotida katta rol o‘ynamoqda. Fan-texnika taraqqiyoti ilg‘or yutuqlarining boshqa barcha sohalari qatori muzey ishiga ham kirib kelishi tabiiy hol bo‘libgina qolmasdan, hayotiy zarurat hamdir.

Xususan, 90-yillarda hozirgi tushunchamizdagi kompyuterlar yaratilishi bilan muzey sohasida ma'lumot tizimini shakllantirish, axborotni to‘laqonli yetkazish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, muzey mutaxassislari kompyuterni egallashi va yagona tarmoqning vujudga kelishi muzey fondlarini hujjatlashtirishda ko‘pgina qulayliklarni yaratdi. Jumladan, eksponatlarning tasviri raqamlı fotokamera orqali

---

<sup>13</sup> Kuryazova D. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San`at.2010. –B. 9.

bevosita kompyuterga kiritilmoqda. Ularning tahlili va boshqa ma'lumotlar esa ilova qilinib, zaruriyat tug'ilganida mutaxassislar tomonidan qo'shimchalar va tuzatishlar kiritiladi. Bu muzey ishida doimiy harakatda bo'lgan katalog va kartotekaning sifati keskin yaxshilanishini ta'minladi.

Internet tarmog'ining kirib kelishi mazkur jarayonni xalqaro miqyosda faollashtirib yubordi. Hozir undagi «Muzeylar», «Madaniyat» bo'limlariga kirib dunyoning xohlagan muzeyi bo'ylab «sayr» qilish, muzeylar haqida umumiylar ma'lumotlardan tashqari, fond eksponatlari, yangiliklar, maxsus tadbirlar va ilmiy anjumanlar haqida, soha mutaxassis-xodimlar manzili, ularning internetdagি elektoron pochtalari va boshqa ma'lumotlarni olish mumkin. AQShdagi AMIKO konsorsiumi tarqatgan ma'lumotga qaraganda, Internet tarmog'ida ikki yarim milliondan ortiq muzey eksponatlarining suratlari aks ettirilgan kartoteka tizimi mavjud.

O'zbekiston muzeylari ham internetda o'zlarining saytlarini yaratish ustida ish olib bormoqdalar. Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasida muzey xodimlarini shaxsiy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash masalasi asta-sekin ijobjiy hal etilmoqda. Muzeyda Internet tarmog'iga ulanish, sayt yaratish va ma'lumotlar bazasini barpo etish ustida ayrim ishlar amalga oshirildi. Ilk qadam sifatida, muzey fondidagi qo'lyozmalar to'plamini elektoron lazer diskiga ko'chirish ishlari boshlab yuborildi. Respublikamiz muzeylarida bu sohadagi ishlar asta-sekin olib borilmoqda.

Ma'lumki, muzeyning asosiy vazifasi yig'ish, saqlash va namoyish etishdan iborat. Bugungi kunda muzeylar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'zlariga tegishli eksponatlarning saqlanishini ta'minlashlari mumkin. Chunki, aniq hisobga olish muzey boyliklarini but saqlash va ularga egalik qilish huquqini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda tarixchi, san'atshunos, muzeyshunos tadqiqotchilar va ijtimoiy sohaning boshqa vakillari muzey boyliklarini to'laqonli ilmiy o'rganishda ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Avvalo, yirik muzeylarimizda joriy etilgan tartib

- qoidalar chetdan kelgan mutaxassis-olim va muzey ma'muriyati o'rtasida aksar hollarda kelishmovchilik va ba'zan qarshiliklarga olib kelmoqda. Amaliyotda shunday hodisalar kuzatilmoqdaki, o'zi xizmat qilayotgan ilmiy muassasaning rasmiy yo'llanma xati bilan murojaat qilgan tadqiqotchiga bo'limlardagi kartoteka bilan tanishishga ruxsat beriladi, xolos; ayrim muzeylar esa pulli xizmat turini taklif qilmoqdalar. Xorij mamlakatlaridan kelgan tadqiqotchilarining tijorat nashrlari uchun bunday xizmat turi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Lekin respublikaning ilmiy muassasalaridagi xodimlar madaniy boyliklarimizni hyech qanday to'siqsiz o'rganishlariga sharoit yaratilishi lozim. Chunki, birinchidan, ularga bu kabi izlanishlar uchun davlat byudjetidan qo'shimcha mablag' ajratilmaydi. Ikkinchidan, bunday tadqiqotlar respublikamiz ilmiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotini, jumladan, o'sha muzeylar manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi.

Yuqoridagi muammo sababli O'zbekistondagi muzeylar fondi eksponatlарining 70 foizi o'zining fundamental tadqiqotini kutib yotibdi. Kutubxonalardagi mavjud nashrlar esa ko'pi bilan ularning 10 foizini yoritadi, xolos.

Holbuki, hozirgi paytda dunyoda muzey ishi juda ilgarilab ketganining guvohi bo'lmoqdamiz. Jahondagi deyarli barcha zabardast muzeylar internet tarmog'i orqali tinimsiz chiqishlar qilib, o'z saytlarini muntazam yangi axborotlar bilan to'ldirib borishyapti. Birgina Rossiya amaliyotini kuzatadigan bo'lsak, u yerda muzeylar faoliyati bilan shug'ullanuvchi qator uyushma va markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. Internetda «Muzei Rossii» serveri, «Vserossiyskiy reestr muzeev» va boshqa saytlarda muzeylar hayotining hamma jihatlari batafsil yoritib borilmoqda. Davlat Tarix muzeyi (Moskva) 1997 yildan e'tiboran eksponatlарini Internet tizimi orqali namoyish etib kelyapti. Muzeyning uch mingdan ziyod eksponatlari Umumevropa «Muzeum Onlayn» tarmog'iga kiritilgan. Davlat Ermitaj muzeyi ham zahirasidagi to'rt mingdan ortiq asarlarini shu yo'l bilan namoyish qilmoqda. Ribinskiy badiiy muzeyi o'z sohasida ilg'orlik qilib, 2000 yil

10 martda Moskva shahrida 45000 kartochkadan iborat elektron sayti taqdimotini o‘tkazdi. Muzeylarda elektron tizimining joriy etilishi unda namoyish qilinadigan saytlarning shakli, tartibi, ko‘rinishlari, tuzilishi va sohaning boshqa masalalariga bag‘ishlab qator ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilmoqda.

Ular orasida ADIT (Avtomatizatsiya deyatelnosti muzeev i informatsionnaya texnologiya) uyushmasi nodavlat tashkilot va idoralari bilan hamkorlikda muzey sohasiga zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarini olib kirishda ko‘pgina ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, uyushma har yili Rossiyaning turli shaharlarida ilmiy anjumanlar o‘tkazib kelmoqda 2001 yil 28 may- 1 iyun kunlari Tula shahrida «Muzeylar va axborot maydoni: axborotlashtirish muammolari va madaniy meros» mavzuida ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda muzey mutaxassislaridan tashqari, kutubxona, arxiv universitet, elektron nashriyot va texnika bilan shug‘ullanuvchi firmalar, ko‘plab xorijiy tashkilotlarning vakillari hamda muammoga aloqador boshqa sohalarning mutaxassislari qatnashadilar.

Anjuman o‘z doirasida «ADIT missiyasi – muzeyi hujjatlari bo‘yicha milliy Assotsiatsiya sifatida», «Informatsion menejment», «Hisobga olish va saqlash faoliyatini ma'lumotlash», «Muzeylarning ilmiy tadqiqot va ekspozitsiya-ko‘rgazmalar faoliyatiga avtomatika tarmoqlarini olib kirish», «Tomoshabinlar bilan ishslashda ma'lumot tarqatish» mavzulari bo‘yicha seksiya majlislari o‘tkazildi. Shuningdek, muzeylar uchun SD-ZOM elektron nashr va Internet-saytlardan namunalar namoyish etildi<sup>14</sup>.

Hozirgi kunda boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo‘lgani kabi, respublika muzeylarida aynan nashr masalasi katta moliyaviy muammolarga duch kelmoqda. yevropa va Amerikaning muzey, kutubxona va arxivlari mazkur muammoni yana o‘sha Internet tarmog‘idan keng foydalanish orqali hal qilishga intilmoqdalar. Masalan, nemis mutaxassislari 2001 yil 19-22 iyun kunlari Myunxenda bo‘lib o‘tgan IV Xalqaro «Muzey ishi, komplektlashtirish, ta’mirlash va ko‘rgazmalar uchun texnologiya» mavzuidagi ixtisoslashgan ko‘rgazma materiallarini maxsus

---

<sup>14</sup> Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. –B.97.

saytda e'lon qilishdi. Rossiya muzeyshunoslari «Muzei buduxego: informatsionne texnologii i kulturnoe nasledie» nomli maqolalar majmuining bir qismini va boshqa nashrlarni Internet tarmog'ida yoritdilar. Ulardan ayrimlari rus tilida muzeylarimizning boshqa xorijiy tillarni bilmaydigan mutaxassislari uchun qulaylik yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlatimizda muzeylarni qo'llab-quvvatlash respublika «O'zbekmuzey» jamg'armasi qoshida muzeylar uchun elektron dasturlar yaratuvchi mutaxassislardan iborat maxsus markaz tashkil etish kun tartibidagi dolzARB masala, deb hisoblaymiz. Chunki, aynan shunday markaz orqali O'zbekiston muzeylarida ma'lumot tarqatish va saytlar yaratishning yagona tizimini joriy qilish mumkin. Yirik muzeylarimiz xorijiy sarmoyalarni jalb qilgan holda xalqaro standartlar negizida elektron axborot majmuini yaratishlari mumkin. Lekin bunda muzeylarda ma'lumotlar to'plashning turlicha uslub va ko'rinishlari hosil bo'lib, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Shuni hisobga olgan holda respublikaning turli yo'nalishdagi 80 dan ortiq muzeyda saytlar, hisobga olish va kartotekaning yagona andozasi tayyorlansa, bu keyinchalik respublika muzey fondining yagona katalogini nashr qilishda juda asqotgan bo'lardi.

Xullas, boshqa madaniy muassasalar qatorida muzeylarimizning ham elektron nashrlari bilan dunyo ma'lumotlar oqimiga qo'yilishlarini tabiiy hol va zamon talabi deb qabul qilmog'imiz lozim. Zero ma'lumot tarqatish bilan muzey o'zini jamiyatda reklama qilishi, tomoshabinlarni ko'paytirishi va horijiy hamkasblar bilan tez va qulay aloqa o'rnatishi mumkin. Elektron axborot tarqatish vositalari tizimini joriy etish muzeylarimiz boyligini keng omma, xususan, yoshlar orasida targ'ib qilishda ham o'zining ijobiylini o'ynaydi.

Xalqaro Tinchlik yili nishonlangan 1986 yilda Samarqand shahrida Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi ochilgan bo'lib, 1989 yili unga «Xalq muzeyi» nomi berilgan. O'ziga xos axborot – aloqa markazi vazifasini bajaruvchi bu muzey

ko‘plab ta’limiy dasturlar, xalqaro loyihalar va badiiy ko‘rgazmalar o‘tkazib turish bilan birga doimiy ekspozitsiyasiga ham ega.

“Muzey bisotida barcha qit’alardan keltirilgan yigirma mingdan ko‘proq eksponat-plakatlar, rasm, gobelen, bayroq, vimpel, kitob, nishonlar, videofilm, audiokasseta, kompakt-disklar va boshqa ko‘plab ashyolar mavjud. Ular orasiga Nagasakida atom bombasi portlashi natijasida erib ketgan uy tomi cherepitsasining parchasi, Stalingrad janggohlari, Osvensim, Xirosimadagi Tinchlik bog‘i to‘prog‘i solingan kapsulalar, Berlin devori bo‘lagi, yo‘q qilingan «Pershing-2» Amerika yadro raketalarining soati, astronavt R.Furrerning «Chellenjer» kemasida o‘zi bilan parvozga olib chiqqan sovg‘asi qo‘yilgan; tug‘ma nogiron bo‘lgan fransuz rassomi Denis Legrining go‘zallik va hayotga muhabbat ruhi bilan chizgan rasmlari hayratga soladi, ekspozitsiyada bolalarning ham ko‘plab tasviriy asarlari qo‘yilgan”<sup>15</sup>.

Muzey ko‘pgina xalqaro va milliy tashkilotlar hamda barcha qit’alardagi pok niyatli insonlar bilan keng aloqa bog‘lagan. BMT, OBSe, yevropa Kengashi, yevropa Ittifoqi Komissiyasi, YuNeSKO, IKOM, NATO, Xalqaro PeN- klub, Norvegiya Nobel instituti, Umumjahon Cherkovlar Kengashi, Jahon Banki, Xalqaro qizil Xoch qo‘mitasi va boshqa tashkilotlarning muassasalari muzeyga o‘z nashrlarini yuborib turadi.

Jenevadagi Xalqaro tinchlik byurosiga va Jahon muzeylarining umumjahon tarmog‘iga a’zo bo‘lgan muzey fondidagi ko‘rgazmalar Kipr, Fransiya, Gollandiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda namoyish qilindi. Uning faoliyati ko‘plab maqlalarda, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar dasturlarida aks ettirilgan. Kezi kelganda shuni aytib o‘tish lozimki, Xalqaro muzeylar kengashi tomonidan Parijda ingliz, fransuz, ispan tillarida nashr etiladigan «IKOM Nyus» jurnalining 2000 yildagi birinchi soni Samarqanddagi Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi faoliyatiga bag‘ishlangan maqola bilan ochilgan.

---

<sup>15</sup> O‘ljayeva Sh Muzeysenoslik (o‘quv qo‘llanma). -T.: 2002. -B. 78.

Muzey faoliyat ko‘rsatayotgan davrda uning muayyan ish yo‘nalishlari shakllanadi. Bunga mashhur arboblar, shoirlar, olimlar, musiqachilar, san’atkorlarning dastxatli surat va shaxsiy nomlarini qamrab oluvchi «Tinchlik dasxati», bolalar ijodiga bag‘ishlangan «Dunyo va mamlakatlar bolalar nigohida» yo‘nalishlarini misol keltirish mumkin. Istiqbolda doimiy amal qiluvchi Bolalar rasmlari xalqaro galeriyasi, «Urush o‘yin emas. Harbiy o‘yinchoqlar o‘ynash nimaga kerak? Tinchlik mendan boshlanadi» shiori ostida «Tinchlik va quolsizlanish bolalar festivali», O‘zbekistonda xorijlik rassomlarning tabiat fusunkorligini tasvirlovchi «Go‘zallik dunyoni asraydi» nomli ekspozitsiyalarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Bu asarlarning bir qismi muzeyning doimiy ekspozitsiyasiga kiritilgan. Kelajakda Samarqandda «Go‘zallik dunyoni asraydi», «Dunyo jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar nigohida», «Tabassum olami», «Esperanto» baynalmilal klubi nomli badiiy galereyalarni vujudga keltirish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, muzeyda «Buyuk Ipak yo‘li» galereyasi tashkil etgan holda o‘z vositalari yordamida qadimda shu yo‘l tufayli yuzaga kelgan an‘analarni qayta tiklash, xalqlar orasidagi madaniy ayirboshlash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Shubhasiz, bunday ezgu ishlarning amalga oshirilishida muzey fondiga moddiy–texnika va mablag‘ ajratish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinganligi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, respublikamizda «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi hamda tarixiy mavzuda vaqtli nashrlar tashkil etilganligi ham muzey ishlari va bu boradagi tadqiqot natijalari targ‘ibotiga xizmat qiladi.

## **1.2. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylar va muzey ishi.**

Xalqimiz qadim zamonlardan beri o‘z tarixining shonli sahifalariga oid noyob osori atiqalarini asrab-avaylab keladi. Ulug‘ insonlar, tabarruk allomalar hamda xalq qahramonlaridan esdalik bo‘lib qolgan buyumlar, tarixiy manbalar afsonalarga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Keyinchalik, masalan, temuriylar davrida saroylarda, boshqa xazinalarda shunday noyob buyumlarni bir

joyga to‘plab, aziz mehmonlarga namoyish etish odat tusiga kira borgan. Tarixchilarning asarlarida hazrat Sohibqiron Amir Temur vafotidan so‘ng uning qurol-aslahalari, sovg‘alar va qator harbiy o‘ljalari maqbara ichiga qo‘yilganligi hamda bu narsalar haqida ziyoratchilarga so‘zlab berilganligi qayd etiladi. Maqbaraga qo‘yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanar edi. Mamlakatimiz madaniy hayotida shu davrdan boshlab muzeylar faoliyati shakllana boshlagan desak bo‘ladi. Buxoro amiri Abdul Ahadxon saroyida tarixiy buyumlarni mehmonlarga namoyish etadigan maxsus xonalar bo‘lgan. Bu xonalar “Moziygoh” deb atalib, tom ma’noda hozirgi muzey tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz saroyida ham shunday “Ajoyibxona” bo‘lgan.

“Mamlakatimizning uzoq uch ming yillik buyuk davlatchilik tarixi shundan dalolat beradiki, har doim ham o‘zbek yurti o‘zining betakror iqtisodiy salohiyati bilan tabiiy ravishda ko`plarni o`ziga rom etib kelgan. Keyingi bir yarim asr mobaynida xalqimiz o‘zining behisob iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma`rifiy boyliklaridan judo bo`ldi”<sup>16</sup>. Biroq, mazkur tazyiqlarga, yo`qotishlarga qaramasdan, o‘zbek xalqi asl o`zligini saqlab qola bilganligiga ham tarix guvohlik beradi. Shu davrlarda xalqimiz tarixini aks ettiruvchi ko`plab noyob osori atiqalarimiz talon-taroj qilinib, yurtimizdan tashqariga tashib ketildi. Sho`rolar davriga kelib muzeylarimiz kommunistik mafkurani targ`ib etadigan siyosiy o`choqlarga aylantirildi.

Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqi o`z qaddini rostladi, uning xalqaro nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlarining turli millat va xalqlarning O‘zbekistonga, o‘zbek xalqiga munosabatining o`zgarishi bu – ildizlari asrlar qa`riga, ko`hna tarixiga tutashgan taqdirimizga bo`lgan ehtiromdir.

Mamlakatimiz mustaqillik davriga qadam qo`ygandan beri hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylar faoliyatida ham katta tarixiy o`zgarishlar sodir bo`ldi.

---

<sup>16</sup> Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San’at, 2010. -B.72.

O`zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo`lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o`tmish merosimizni o`rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ`ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Mustaqillik yillarida diyorimizda bunyod etilgan turli muzeylar shubhasiz ana shu ezgu niyatlarni ro`yobga chiqarish borasida muhim qadam bo`ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Mustaqil vatanimizda milliy o`zlikni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko'rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o`rganish va targ`ib etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sobiq sho'rolar davrida faqat «Qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o`zlikni anglashga xizmat qilib kelmoqda. Mustaqillik davrida muzeylar ishiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning bir qancha omillari bor:

Birinchidan, mustamlakachilik yillarida ongimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularni qayta tiklash;

Ikkinchidan, milliy g'urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash;

Uchinchidan, ajdodlar xurmatini joyiga qo'yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, milliy g'ururini yuksaltirish, buyuk an'analarning davomchisi etib tarbiyalash;

To'rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, xuquqiy, qudratli O`zbekiston davlatini barpo etish uchun «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat» g'oyasini ro`yobga chiqarish uchun kerak;

Beshinchidan, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

Ushbu yo'naliishlarga Prezidentimiz asarlarida qayta-qayta to'xtalib o'tilmoqda. Ana shu maqsadlar hukumat siyosiy tadbirlarida o'z ifodasini topmoqda. 1998 yil 12 yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va

takomillashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e’lon qilindi. Farmonda asosan O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma’naviy - axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g‘urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, moddiy — texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur sharoitlar, chora-tadbirlar — Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo‘llab quvvatlovchi «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi tashkil etildi. Bu jamg‘arma muzeylar fondlarida yillar davomida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixidan guvohlik beruvchi noyob nodir eksponatlarni avaylab asrash, ularni ilmiy tomonlarini o‘rganish, ta’mirlash, yangi eksponatlar bilan muzey zallarini boyitish bilan shug‘ullanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamaa boshqaruvo xo‘jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta’limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo‘lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o‘nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san‘at arboblari uy muzeylari mavjud.

Bu muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma’naviyat maskanlari bo‘lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftihorni yuksaltirishda ulug‘ qadamjolar bo‘lib qolmoqda<sup>17</sup>.

O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining «Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab quvvatlash masalalari to‘g‘risida»gi 5 mart 1998 yil 98-sonli qarori

---

<sup>17</sup> Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San’at, 2010. –B.91.

«O‘zbekmuzey» jamg‘armasiga, O‘zbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining xalqaro muzeylar kengashi — IKOMga a’zo bo‘lganligini hisobga olib, O‘zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko‘rsatish vazifasi topshirildi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta‘mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob —uskunalar bilan jihozlash hamda mablag‘ bilan ta‘minlash vazifalari yuklatilgan.

Mazkur qarordan ilhomlangan «O‘zbekmuzey» xodimlari qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Mavjud barcha o‘zbek muzeylari fondidagi eksponatlarni yagona ro‘yxatini tuzish, eksponatlarni doimiy himoya qilish sharoitlarini yaxshilash, saqlanayotgan eksponatlarning qat’iy nazoratini ta‘minlash, ilmiy konsepsiylar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan tariximizga va ma’naviy boyligimizga oid osori-atiqalarni, shuningdek, qadimiy qo‘lyozmalarni ro‘yxatga olish, ularni xalqimizga tanishtirish, shuningdek, muzeylardagi nodir eksponatlarni dunyoga olib chiqish, jahon xalqlariga tanishtirish sohasida tegishli tashkilotlar bilan hujjatlar ishlab chiqish, shartnomalar tuzish ishlarini olib bormoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy va ma’naviy muxitni yanada sog‘lomlashtirish to‘g‘risida»gi hamda «Ma’naviy va ma'rifiy islohotlarni samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risi»dagi qarorlariga javoban qator tadbirlar ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra, mamlakatdagи barcha muzeylarda har oyning bir kuni «Ochiq eshiklar kuni» deb e’lon qilindi. Shu kuni muzeylarga o‘quvchilar, talabalar va boshqa tomoshabinlarga muzey xodimlari bepul xizmat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tariximizning yorqin iz qoldirgan allomalarga bag‘ishlab, muzeylarda «Barhayot siymolar» mavzusida adabiy kechalar, «Istiqlol, ma’naviyat va muzey» mavzusida tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Manguberdi, Ogaxiy, Boborahim Mashrab va boshqa allomalarga bag‘ishlab muzeylarda o‘tkazilayotgan tadbirlar yoshlarni ajdodlar me’rosiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy, madaniy, tarixiy merosni

o‘rganish orqali Al-Farg‘oniy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Amir Temur, Muhammad Rahimxon – Feruz, Najmiddin Kubro kabi allomalar qomusiy bilimga ega, yuksak insoniy fazilatli siymolar bo‘lganligini anglaymiz.

Mamlakatimiz hayotida o‘rta asr uyg‘onish davri faoliyati, fan va madaniyatning yuksak cho‘qqiga erishgan davri sifatida e’tirof etiladi. Jumladan, Amir Temur va uning ajdodlari hukmronlik qilgan davrda joylarda juda katta ma’naviy o‘sish, yuksalish, madaniy taraqqiyot ko‘zga tashlanadi. Shu davr tarixidan hikoya qiluvchi muzeyning tashkil etilishi esa u haqdagi tarixiy hujjatlar hamda asarlarda aks etgan hayot haqiqatlaridan atroflicha ma'lumot beradi, kelajak avlodga yangi va farovon hayot qurish ishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixizdan ma'lumki, Turon Movaraunnaxr, Turkiston deya atab kelingan, «Buyuk ipak yo‘li»da joylashgan O‘zbekiston Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi, ularni iqtisodini, madaniyatini, san'atini, taraqqiyotini bog‘lab turadigan bir makon bo‘lgan.

«Buyuk ipak yo‘li»ning vorisi sifatida O‘zbekistonga ko‘plab mamlakatlar AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz me’ros qilib qoldirgan muzeylarimizada saqlanayotgan noyob osori — atiqalarni ko‘rish, qadimiy — tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar<sup>18</sup>.

«Amerika Qo‘shma Shtatlarida qadimiy «Buyuk ipak yo‘li» da joylashgan, uyg‘onish davrida ham, o‘rta asrlarda ham jahon taraqqiyotining, ilm —fan rivojining o‘chog‘i, buyuk allomalar makon topgan, boy tarixi, madaniyatga ega bo‘lgan bugun ham katta ilmiy — iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlariga ega bo‘lgan sizning O‘zbekiston Respublikangizga xurmat, qiziqish juda kattadir», — deb yozibdi Islom Karimovga yo‘llagan xatida AQShdagi Markaziy Osiyo muzeyi direktori, Pensilvaniya universitetining professori, doktor Fredrik Xiberg. Shu mazmundagi xatlar Yaponiyadan, Fransiyadan, Germaniyadan, YuNeSKOdan,

---

<sup>18</sup> O‘ljayeva Sh Muzeysenoslik (o‘quv qo‘llanma). -T.: 2002. -B.100.

Xalqaro muzeylardan tashkiloti IKOMdan tez —tez kelib turibdi. Gap shundaki, hammasi ham o‘z mamlakatlarida muzeylarimizdagi eksponatlarni ko‘chma ko‘rgazmasini tashkil etishni taklif etmoqdalar. Mustaqillik davrida yurtimizda buyuk tarixiy siymolarga atalgan xaykal va muzeylar soni ko‘payib bormoqda.

Mustaqillik davrida buyuk tarixiy siymolarga atalgan xaykal va muzeylar qurildi. Jumladan, Toshkentda 1993 yilda Amir Temur Xiyoboni o‘rtasida Sohibqiron Amir Temurga Suvoriy haykal o‘rnatildi.

1996 yilning 18 oktyabr kuni mamlakatimiz poytaxti Toshkentda buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurga atab Sharq Milliy me'morchiligining noyob va mo‘jizaviy namunasi sifatida bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Prezident I.Karimov muzey ochilish marosimida so‘zlab «Bugun zo‘r shodiyona— bilan ochilayotgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizdagi tarixiy adolat tantana qilganing yana bir amaliy isbotidir.

Aytish mumkinki, Amir Temur hiyoboni go‘zal bir uzuk bo‘lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko‘zidir. Muzeyni ziyyarat qilgan har bir inson mening bu so‘zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag‘a emasligiga ishonch xosil qiladi. Bu muzeyda bizning o‘tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoliko‘zguda aks etgandek namoyon bo‘ladi. Kimki O‘zbek nomini, o‘zbek millatini kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan xissasini, shu asosda kelajakka ishonchini eslash kerak.

Amir Temurning bashariyat oldidagi o‘lmas hizmatlarini ma'rifatli jahon munosib baholamoqda. Sohibqiron yubileyining YUNESKO tomonidan xalqaro miqiyosida keng nishonlanganligi ana shu e’tirofning yorqin dalilidir.

Shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot mansub bo‘lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirlarimizda Amir Temur shijoati jo‘sh urayotganini o‘ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixor tuyg‘ulari qamrab oladi. Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining

asosiy ma'nosi — Vatan ozodligi, vatanga muhabbat degan oliv qadriyatlardan iboratdir. Chuqurroq o'ylab qaralsa, bu vasiyat aynan yoshlar uchun— buyuk sohibqironning bugungi avlodlari uchun aytilgan. Bu dunyoda xalqimiz, millatimiz, O'zbekistonimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayot!<sup>19</sup>»

Amir Temur va uning ajdodlari hayoti va faoliyatidan xabar beruvchi ulkan, hashamatli muzey nafaqat xalqimiz, millatimiz vakillarini, balki boshqa qardosh, horijiy mamlakatlar fuqarolarini ham o'ziga jalb qilib, ularda juda katta taassurot qoldirmoqda. Shahar markazining eng so'lim go'shasida joylashgan muzey imorati o'zining talqi viqori, muhtasham ko'rinishi, atroflaridagi favvoralar, yam-yashil manzaralar bilan birgalikda shahrimiz chiroyiga chiroy qo'shib, kishilar ma'naviyatini yuksaltirish, iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish ishida ham beqiyos vazifani amalga oshirmoqda. Zero, Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma'nosi – Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat degan oliv qadriyatlardan iboratdir.

Umumiy maydoni besh ming kvadrat metrni tashkil ettan bu muzey 6 oy davomida qurilib bitkazilgan. Muzey qurilishida butun mamlakat mutaxassislari ishtirok etgan. Toshkentlik qo'li gul quruvchilar, chinnisozlik va keramika, «Mikond» korxonalarining mohir hunarmandlari, «Usta» birlashmasi, Yugoslaviyaning «Torevik» firmasi va boshqa o'nlab mehnat jamoalari bu ishga munosib hissa qo'shanlar. 1996 yil 1 sentyabrda davlatimiz mustaqilligining 5 yillik to'yida Toshkentda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) raisi X. A. Samaranch Olimpiya shon — shuhrat muzeyining tantanali ravishda ochdilar. Muzeyni ochilish marosimida sportchilar, murabbiylar, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Olimpiya qo'mitasi, sport klublari va jamiyatlari vakillari ishtirok etishdi.

Muzeyni bezash ishlarida eng iqtidorli rassomlar va haykaltaroshlar, O'zbekiston xalq ustalari qatnashdilar. Muzeydagi eng asosiy mavzu — hozirgi zamon Olimpiya o'yinlari. Eksponatlardagi Olimpiya harakati qachon paydo

---

<sup>19</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik, taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafalotlari. -T.: O'zbekiston. 1997.

bo‘lgani, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasining barpo etilganligi, mamlakatimizda olimpiya g‘oyalarining taraqqiy etganligi, Olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilishi va shu o‘yinlarda g‘olib sovrindor bo‘lib chiqqan O‘zbekiston sportchilarining ishtirok etayotganligi haqida hikoya qilinadi. Muzeyga tashrif buyurganlar XX asr Olimpiya o‘yinlarining shonli tarixida o‘z nomlarini qoldirgan bir qator sportchilar bilan tanishadilar. G. Shamray (gimnastika), S. Babanina, N. Ustinova (suzish), V. Duyunova, L. Pavlova (valeybol), R. Kazakov, A. Fadzaev, aka - uka Xadarsevlar (kurash), R. Risqiev (boks), S. Ro‘ziev (qilichbozlik), R. Gataulin (langarcho‘p bilan sakrash), L. Axmedov, A. Xan (chim ustida xokkey), R. Yambulatov(miltiqdan otish), N. Muhammadiyorov (og‘ir atletika), O. Chusovita, R. G‘aliev (gimnastika), L. Cheryazova (fristayl) shular qatorida o‘rin olgan.

Ekspozitsiyalarda mustaqil O‘zbekiston terma jamoasining 1996 yili Atlanta shahrida (AQSh) Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgani to‘g‘risidagi qiziqarli ma'lumotlar alohida o‘rin tutadi.

Horijiy mutaxassislarning e’tirof etishlariga ko‘ra mamlakatimizning sportchilarining musobaqalarda birinchi marta ishtirok etganliklari muvaffaqiyatlari chiqqan; A. Bagdasarov (dzyudo) kumush medaliga, K. To‘laganov (Boks) bronza medaliga sazovor bo‘lishdi, O. Chusovitina (gimnastika), R. Galiev (yengil atletika), R. Islamov, A. Ochilov (kurash) o‘z yuksak mahoratlarini qo‘rsatishdi.

Har qanday muzeyda bo‘lgani kabi, katta qiziqish uyg‘otgan eksponatlar bu yerda ham mavjud. Bu avvalo, O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov taqdirlagan Olimpiya oltin nishoni va Osiyo Olimpiya Kengashi nishoni, shuningdek, turli xil boshqa mukofotlar, sovrinlar, medallar, fristayl bo‘yicha jahon championi L. Cheryazovaning shaxsiy sport jihozlari, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti X.A.Samaranchning muzey ochilishida topshirgan esdalik sovg‘alari, rang — barang nishonlar, ayniqsa, diqqatga sazovardir.

Olimpiya shon —shuhrat muzeyi faqatgina o‘z faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki O‘zbekiston Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi, hamda

O‘zbekiston Olimpiya Qo‘mitasi bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi: matbuot konferensiyalari, anjumanlar o‘tkazish, sportchilarni musobaqalarga kuzatish, har xil turnirlar va musobaqalarning g‘oliblari bilan uchrashuvlar uyuştirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi. Ko‘pincha, aynan ana shu uchrashuvlardan keyin sportchilar o‘zlari qo‘lga kiritgan sovrin va kuboklarni mukofot tariqasida muzeyga topshirib ketadilar.

Muzey zamonaviy video texnikasi bilan jihozlangani tufayli, bu yerda Toshkentda bo‘lib o‘tadigan turli xil sport musobaqlari shuningdek, muzeyda o‘tkaziladigan matbuot konferensiyalari, anjumanlar, qutlovlarni tasvirga tushirish va keyin ommaga namoyish etish imkoniyati yaratilgan. Bu lavhalardan sport mutaxassislari, televidenie va ommaviy axborot vositalaridan sport tahririylar foydalanadilar. Muzeydagи texnik jihozlar, eksponatlar va jamg‘armalar, video mahsulotlari, maxsus adabiyotlar har xil sport turlari mutaxassislari, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari, malaka oshirish kurslari tinglovchilarining ilmiy, uslubiy tadqiqotlar o‘tkazishlariga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Muzey Lozannadagi XOQ MOK bosh qarorgohi huzuridagi Olimpiya shon — shuhrati muzeyi bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlik qilish to‘g‘risidagi ikki tamonlama shartnoma imzolagan, ekspozitsiyalar va adabiyotlar soni shu yo‘l bilan ham ko‘payib boradi. Olimpiya shon — shuhrati muzeyi xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi Prezidenti X.A.Samaranch tomonidan yuksak baholangan, u muzeyga «Muzey jahonda ikkinchi o‘rinda turadi», baho bergen edi.

Qariyb yigirma ikki yillik davr mobaynida respublikamizda muzeylar faoliyati yaxshilandi va hozirgi kunlarda takomillashtirilmoqda. Shu o‘rinda muzey ishi haqida ham to’xtalib o’tsak. Muzey jamiyatning real dunyoning predmetlarini tarixiy xotira, ijtimoiy axborotning xujjatli vositalari, estetik predmetlar shaklida saqlash ehtiyojini qondiruvchi maxsus muassasa hisoblandi.

Muzeyning asosiy belgisi – ilmiy asosda tashkil etilgan va hisobga olish lozim bo‘lgan muzey predmetlarini to’plash, saqlash, konservatsiyalash, muzeyshunoslik

va sohaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadqiq qilish va ilmiy, ta`limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishlardan iborat. Umumlashgan formada muzeyning zamonaviy tushunchasini quyidagicha ta`riflash mumkin.

Muzey – bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to'plash va tarqatish uchun mo'ljallangan tarixiy belgilangan, ko'pqirrali ijtimoiy axborot muassasadir<sup>20</sup>.

Ma'lum tarxiy sharoitda muzeylar faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida qatlami sifatida – muzey ishining mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Uning tarkibiga muzeylarning amaliy faoliyati va yodgorliklarni asrash, muzeylar tizimi, muzey siyosati va qonunchiligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi, soxaviy ilmiy, ilmiy – metodik va o'quv markazlari, maxsus davrlashtirish va nihoyat maxsus ilmiy fan muzeyshunoslik fani kiradi. Muzeyshunoslik ijtimoiy fan bo'lib, ijtimoiy ma'lumotlar, bilimlari saqlash jarayonlarini, hamda bilimlar va xissiyotlarni muzey predmetlari vositasida yetkazib berish masalalarini o'rganadi.

Muzeylar — moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini, shuningdek tabiat va insoniyat jamiyat taraqqiyoti xaqidagi bilimlarning ilk manbalari xisoblanadigan tabiiy — tarixiy kolleksiyalarni to'plash, saqlash, o'rganish, ko'rgazma qilish va ommaga yetkazish bilan shug'ullanadi.

Muzeylar madaniyatning asosiy davlat omborxonalaridir. Muzeylar faoliyatining xarakteriga ko'ra ilmiy — tadqiqot va ilmiy — ma'rifiy muassasalar hisoblanadi. Ilmiy — tadqiqot muassasasi sifatida muzeylar madaniyat va tabiiy - tarix yodgorliklarini, shuningdek tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar bo'yicha boshqa ilk manbalarni to'playdilar, o'rganadilar, saqlaydilar. Ilmiy - ma'rifiy muassasalar sifatida esa muzeylar o'zlarining tadqiqot ishlari natijalarini ko'rgazma va nashr qilish singari ilmiy - ma'rifiy faoliyatlarida namoyish qiladilar.

Boshqa fanlar qatori «muzey», «muzey ishi» terminining o'ziga xos boshqa fanlardan farqlantirib turuvchi xususiyati ham bor.

---

<sup>20</sup> Davlatov.B. Ibragimov O. Muzeyshunoslik atamalarining izoxli lug'ati. – T.: 2005. –B.117.

Muzeylarni rivojlantirish, ularning ijtimoiy funksiyalari, ichki strukturasi, boshqa fanlar, madaniyat, o‘quv, tarbiyaviy, tashviqot sohalari bilan aloqadorligi o‘ziga xos ilmiy analizni talab etadi.

Muzeysenoslik rivojlanishning barcha pog‘onalarida muzey fenomenini to‘liqroq sharhlashga, uning jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatishga intiladi.

Muzeylarni boshqa institatlardan farqlantirib turuvchi xujjalalar xususiyatlari bor. Masalan, arxiv kabi ma'lum davrga tegishli hujjalalar bilan shug‘ullanish, kutubxonalar kabi ma'lum informatsiyalarni yetkazib berish bu institut zimmasiga kirmaydi. Uning zimmasiga saqlash, tadqiqotchilik, o‘quv — tarbiyaviy masalalar kirishi bilan birga qisqa vaqt ichida uzluksiz tarixni yoritib bera olishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan. Shuningdek madaniy xordiq chiqarish muassasasi bo‘lish masalasi ham uni boshqa institatlardan farqlantirib turadi.

Demak, muzey ijtimoiy talab — ehtiyojni qondirishga, tarixiy xotirani hujjalama'lumotlari asosida jonlantirishga, kishilarga estetik zavq bag‘ishlashga xizmat qiladi.

Muzey ashyolarini yig‘ish, ularni ilmiy asosda hisobga olish, saqlash, ta'mirlash muzeysenoslikning o‘ziga xos ilmiy uslublari asosida tadqiq etish, ilmiy, o‘quv - tarbiyaviy masalalar muzeyning maxsus belgilaridir.

Muzeylar tomonidan ma'lumotlar berib borilishi o‘zaro aloqadorlikning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Uning farqlantiruvchi o‘ziga xosligi bu — ekspozitsiya va ko‘rgazma sifatida faoliyat olib borishdir.

Muzey — madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni yig‘uvchi va ular haqidagi ma'lumotlarni muzey ashyolari vositasida, targ‘ib qiluvchi ijtimoiy institutdir<sup>21</sup>.

Tabiat va jamiyatning muxim o‘zgarishlarini hujjalashtirib muzey ashyolarni to‘ldiradi, saqlaydi, muzey ashyolari kolleksiylarini tadqiq qiladi, hamda ulardan ilmiy, o‘quv — tarbiyaviy va tashviqot maqsadida foydalanadi. Muzey ishi amaliyot, yodgorliklarni saqlash, muzey tarmoqlari, muzey siyosati qonunchiligi,

---

<sup>21</sup> Davlatov.B. Ibragimov O. Muzeysenoslik atamalarining izoxli lug’ati. – T.: 2005. –B.118.

kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, ixtisoslashgan ilmiy - uslubiy va o‘quv markazlari, maxsus davriy matbuot, muzeysenoslik kabi masalalar ni qamrab oladi.

Muzeysenoslikda muzeylarning kelib chiqishi, tarixi, ijtimoiy tizimda ularning o‘rni, guruhlashdirish, muzeylarni turlashdirish, kabi masalalar o‘rganiladi;

- muzeylarning ichki tashkil etilishini, muzeylarning ijtimoiy funksiyasini, maxsus fanlar rivojlanishini o‘rganadi;

- muzeylarning o‘ziga xos harakatlarini o‘rganadi;

- muzey ishi rivojlanishining qonuniyatlarini, uni tashkil etish va boshqarish masalalarini o‘rganadi;

- muzey tarmoqlari, tashkil etilish jarayoni va rivojlanishi, tarmoqlarni loyixalash masalalarini o‘rganadi;

- muzeysenoslik fanini maxsus fan sifatidagi xolatini, uning o‘ziga xos xarakterini va fanlar tizimidagi o‘rnini o‘rganadi.

Mustaqillik yillarda muzeylar rivojlanib bormoqda. «O‘zbekiston xalqlari tarixi» muzeyining yangicha asosda qurilishi, uning ekspozitsiyalarining qaytadan ko‘rilib chiqishi shuningdek shahidlar xotirasiga bag‘ishlab alohida muzey tashkil etilishi fikrimizning isbotidir<sup>22</sup>.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Farmoniga binoan muzeylarda fundamental ilmiy muammolarni tadqiq qilish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Muzeylar ekspozitsiyalarini boyitish, ularni ro‘yxatga olish, fond boyliklarini ilmiy tahlil qilib, muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga va yurtimiz mehmonlariga yetkazish – asosiy vazifalardan hisoblanadi. Muzeylar faoliyatini zamonaviy, jahon talablariga to‘la javob bera oladigan darajaga ko‘tarish maqsadida o‘zbek, rus va ingliz tillarida muzey yo‘l ko‘rsatgichlarini chop etish ko‘zda tutilgan. Shubhasiz, bunday ezgu ishlarning amalga oshirilishida muzey fondiga moddiy–texnika va mablag‘ ajratish to‘g‘risida qarorlar qabul

---

<sup>22</sup> O‘ljayeva Sh Muzeysenoslik (o‘quv qo‘llanma). -T.: 2002. -B.87.

qilinganligi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, respublikamizda «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi hamda tarixiy mavzuda vaqtli nashrlar tashkil etilganligi ham muzey ishlari va bu boradagi tadqiqot natijalari targ‘ibotiga xizmat qiladi.

## **II BOB. MUZEYLAR - YOSHLAR ONGIDA QADRIYATLARNING SHAKLLANTIRISH OMILI.**

### **2.1. Muzeyshunoslik istiqbollari va muzeylar faoliyatini rivojlantirish muammolari.**

Bugun mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda yurtning, ona zaminning har bir farzandi uchun vatan tarixini sevish, o`rganishdan ham muqaddasroq burch bo`lmasa kerak. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko`z qorachig’iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixon qilishga o`rgatadi. O`zimizning boy o`tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg’ularini uyg’otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi»<sup>23</sup>.

Mustaqillik davrida muzey ishining takomillashuvi O`zbekiston istiqloli Respublikamiz ma`naviy hayotida yangi istiqbollarni ochdi. Xususan, jamiyat va inson hayotida muhim o`rin tutuvchi muzey va muzeyshunoslikka davlat siyosati darajasida e`tibor berildi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, O`zbekiston hududida joylashgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish ishlari boshlandi. Ular xalqning ma`naviy-axloqiy kamolotida yanada muhim o`rin egallay boshladи.

Jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo`llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi Farmoni qabul qilindi. Ushbu xujjat O`zbekistondagi muzeylar faoliyatida burilish nuqtasi bo`lib, ularning tarixda yangi davr boshlanganini anglatadi.

Mustaqillik davrida muzeyshunoslik va muzey ishiga oid dastlabki maxsus xujjat O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekarda qabul qilgan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari

---

<sup>23</sup> 1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror tariqqiyot yo`lida, -T.: O`zbekiston, 1998. -B.371.

to`g'risida»gi Qarori<sup>24</sup> bo`ldi. Albatta, bu xujjat o`z davri uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Unda Respublika muzeylarining vazifalari, istiqbollari belgilab borildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida»gi Farmoni muzeylar maqomini yuksaltirishga qaratilgani bilan qimmatlidir.

Ushbu Farmonda O`zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yana takomillashtirish, ularni xalqning ma`naviy-axloqiy kamolotida tutgan o`rnini yuksaltirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash lozimligini ta`kidlandi. Ularni o`rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ`ib etish, xalqimiz ongida milliy g`urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg`ularini kuchaytirish yo`lida keng foydalanish lozimligi ko`rsatiladi. Muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta`minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligining eng ilg`or tajribalarini qo`llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligi ta`kidlanadi.<sup>25</sup>

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 12 sentyabr'da «Muzeylar to`g'risida»gi Qonunini<sup>26</sup> e`lon qilishi muzeylar ish faoliyatini qayta tashkil etish, ularni me`yoriy-xujjatlarini Qonun asosida yuritish, nodir-noyob xalq mulkini saqlash, kelajakka etkazish yo`l yo`riqlari belgilab berilganligi bilan qimmatlidir.

Mustaqillik yillarda muzeylarga bo`lgan e`tibor va talab oshib bormoqda. Bu albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan bog`liq. O`zbekiston xududida mavjud muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma`naviy-axloqiy kamolotida tutgan o`rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o`rganish, boyitib borish, dunyoga olib

<sup>24</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrda qabul qilingan «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to`g'risida»gi Qarori, Xalq so`zi, 1994 yil 24 dekabr'

<sup>25</sup> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida»gi Farmoni. 1998 yil 12 yanvar, Xalq so`zi, 1998 yil 13 yanvar

<sup>26</sup> O`zbekiston Respublikasining «Muzeylar to`g'risida»gi Qonuni. 2008 yil 12 sentyabr', O`zbekiston Respublikasi Qonunxujatlari to`plami, 2008 yil 37-38 son.

chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g'urur va iftixorni, istiqlol va Vatanga hurmat, sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talabiga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta`minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo'llashga zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Yana shu qatorda muzeylarni internet tizimi bilan bog'lash va ilmiy jihatdan markaz bo'lishdir.

O'zbekiston Respublika Prezidenti I.A.Karimovning "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni muzeylar va muzey xodimlarining hayotida katta burilish nuqtasi bo'ldi, desak adashmagan bo'lamiz.

Mamlakatimiz xududidagi mavjud bo'lgan muzeylar tuzimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma`naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnni yanada oshirish maqsadida "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Bunga qo'shimcha yana O'zbekiston Vazirlar mahkamasining 1998-yil 5-martdag'i "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori "O'zbekmuzey"ga O'zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko'rsatish vazifasini topshirdi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta`mirlash zarur texnik va zamonaviy asbob uskunalar bilan jihozlash hamda mablag' bilan ta`minlash vazifalari yuklatilgan.

Tarmoq - muzeylar faoliyati yo'nalishini ishlab chiqarish, fan, san`atning biror tarmog'iga tegishli bo'lishidir. Mustaqillik yillarida bu muzey tarmoqlariga e'tibor bergen bo'lsak, Prezidentimiz qaroridan so'ng yildan yilga rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Muzeylarning to'plovchilik va noshirlik faoliyati ham rivojlanib o'smoqda. Muzeylarning to'plovchilik faoliyatiga ilmiy etnografik, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ilmiy asarlar, qo'lyozmalarni yig'ish va shular asosida muzeylardagi imkoniyat darajasida muzey xodimlarining maqolalari bilan chiqish tushuniladi. Bundan tashqari respublika miqyosida muzeylar faoliyatini maxsus jurnallarda yoritib borish va nashiyotlarda, bekletlar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil etish va uslubiy kitoblarda yoritib borish va boshqa ko'plab

ishlarni amalga oshiridan iboratdir. Bu boradagi shlar keyingi o‘n yillikda aytarli darajada o‘sdi. Respublika miqyosida muzeylar faoliyatini maxsus jurnallarda, jumladan, “Moziydan sado” jurnalida bir qator muzeylar faoliyatiga doir ilmiy va publitistik maqolalar chop etildi. 2002-yilda chop etilgan O‘ljaeva Shohistaxon Mamajonovnaning “Muzeyshunoslik” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi bu boradagi ishlarning ilgarilayotganligidan dalolat beradi. Bulardan tashqari bu borada qilinayotgan ilmiy tadqiqot ishlari muzeylar faoliyatini keng ko‘lamli ilmiy o‘rganishda katta yangilik bo‘ladi.

Mustaqil respublikamiz beba ho tabiiy boyliklari bilangina emas, balki tarixi, betakror obidalari hamda madaniy-ma’naviy yodgorliklari bilan ham jahonga mashhur. Iqtisodiy islohotlarning yangi davriga kirgan mustaqil respublikamiz oldida muzey ishlarini yanada rivojlantirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish kabi dolzarb muammolar turibdi. Bu vazifani munosib tarzda bajarish uchun dastlab muzeylarning terma, yig‘uv ishlarini hozirgi zamon darajasida tashkil etish kerak. Bu qidiruv shaklidagi dala tadqiqotlarini, aholidan qimmatbaho bo‘lgan tarixiy buyumlarni aniq maqsad asosida belgilashni, joyning yoki muayyan hududlarning sayyohlik yo‘nalishlarini, ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lgan tarixiy voqyealar haqidagi ma'lumotlarni to‘plash, muzey ahamiyatiga molik ashyolarni yig‘ish uchun istiqbolliroq joylarda muzeylarning doimiy amal qiluvchi qidiruvlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarda tarixiy yodgorliklar, xususan, amaliy san’atga oid beba ho yodgorliklarni asrash va xalq amaliy san’ati, hunarmandchiligini rivojlantirish ishida o‘ziga xos inqilobiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. «O‘zbek xalqi yaratgan va milliy bisotimiz bo‘lib qolgan noyob tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va ta’mirlash – ma’naviy dasturimizning juda muhim qismidir. Ushbu milliy boylik ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan, binobarin, biz uni ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrashimiz va kelajak avlodlarga topshirishimiz lozim», - deb uqtirgan edi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov.

Mustaqillik yillarida xalq hunarmandchiliginı rivojlantirish borasida katta amaliy ishlar qilindi. Xususan, respublika Amaliy san'at muzeyi faoliyatida ham katta o'zgarishlarga erishildi, qisqa vaqt ichida muzey grant hisobiga olingan zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Yaponiya hukumati tarafidan 2002 yili taqdim qilingan bu jihozlar muzey video-elektron texnik vositalari bilan kuzatuva qo'riqlash imkonini berdi. Shuningdek, AQSh, Italiya, Germaniya kabi davlatlarda muzeyning ko'chma ko'rgazmalarini tashkil etishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi ko'magida muzey ilmiy xodimlari muzeyning nodir eksponatlari tizimidan uch tilda – o'zbek, ingлиз va rus tillaridagi rangli albomni nashrdan chiqaradilar. Hozirgi vaqtida muzey zahirasida saqlanayotgan jami ashyolarning jamlama katalogini tuzish nihoyasiga yetkazildi.

Tabiiyki, har qanday muzey o'z zahirasini yangi topilma va zamonaviy asarlar bilan boyitib boradi. Shu ma'noda Amaliy san'at muzeyida ham xalq san'ati asarlarini yig'ish va ularni muzey zahirasiga qabul qilish uzluksiz davom etmoqda. Shuni alohida qayd qilish kerakki, aholi qo'lida bo'lgan amaliy san'atning noyob namunalarini aniqlash va yig'ish uchun joylarda ilmiy-amaliy qidiruv ishlarini muntazam olib borish zarur.

Amaliy san'at muzeyi zahirasini boyitishning yana bir o'ziga xos jihatı – bu zamonaviy, ya'ni hozirda yaratilayotgan amaliy san'at asarlarini muzey zahirasiga yig'ish bo'lib, mazkur ish muzeyda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy-badiiy kengash a'zolaridan alohida ma'suliyatni talab qiladi. Saqlashga molik deb topilgan har bir amaliy san'at asarini baholashda ilmiylik va xolislik nuqtai nazaridan yondashish zarur. Zero, barcha hunarmandlar ham yuksak iste'dod egasi bo'limganidek, yaratilgan barcha buyum ham amaliy san'at asari hisoblanavermasligi ma'lum.

San'atshunos olimlarimizning ma'lumotlariga qaraganda, XX asr boshida Buxoroning o'zida 400 dan ziyod zargar, 600 dan ko'proq misgar ishlagan. Shulardan 50 tasigina badiiy yuksak va betakror asarlar yarata olgan, xolos. Badiiy ijodning noyob, kishi qalbini o'ziga rom qila oladigan kashfiyot

darajasidagi namunasigina muzey zahirasiga olinishi lozim. Shu ma'noda tuman, viloyat va qishloq muzeylarining faoliyatini yuksaltirish, ularga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish davr talabidir.

Muzeylarda tadqiqot ishlari ko'lамини kengaytirish lozim. Kandakorlik, kashtachilik, zargarlik san'at tarixi, uning taraqqiyot bosqichlari mavzuida ko'p ishlar qilingan. Kitoblar yozilgan. Ammo, shu bilan birga xalq kandakorlik va kashtachilik san'atini ilmiy falsafiy, etnogenetik va qiyosiy jihatdan o'rganish, uning kitobot borasida qilinajak ishlar ko'p. Kandakorlik va kashta naqshlari xalqning falsafiy dunyoqarashi, urf-odatlari tarixi, etnogenetikasini o'rganishda muhim moddiy manba hisoblanadi. Kandakorlik va kashtachilik san'atini qardosh xalqlar san'ati bilan qiyosiy tadqiq etish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Muzeylarimizda saqlanayotgan amaliy san'at asarlari ilmiy tadqiqotlar uchun beباho moddiy manba ekanligi bilan ham alohida ilmiy qimmat kasb etadi<sup>27</sup>. Muzeylararo qo'shma ko'rgazmalar ko'lамини har galgidan ham kengaytirish zarur. Negaki, Buxoro, Xiva, Surxondaryodagi muzey zahiralarida shunday asarlar borki, ular nafaqat mamlakatmizdagi markaziy muzeylarda, qo'yingki, dunyoning hyech bir muzeyida uchramaydi. Muzeylararo qo'shma ko'rgazmalarning afzallik tomonlaridan biri, avvalo, minglab muzey ixlosmandlariga qulay imkoniyat yaratilishidir, qolaversa, muzey xodimlari o'zaro tajriba almashadilar va ilmiy uslubiy yordam oladilar.

O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi Muzeylar boshqarmasi, Respublika «O'zbekmuzey» jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan maxsus guruh uyushtirgan «XXI asrda O'zbekiston muzeylari» mavzuidagi Respublika seminar-kengashi qatnashchilari viloyat va tumanlardagi muzeylar faoliyati bilan tanishib chiqib, ko'plab fikr-mulohazalar bildirishdi.

Muzey ishining yana bir muhim jihat-turizm bilan bog'liq muammodir. Hozir muzeylarimizda ajdodlarimizdan qolgan, xalqning faxri va ko'rki bo'lган, uning

---

<sup>27</sup> Kuryazova D. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San'at. 2010. -B. 42.

ma'rifiy va ma'naviy darajasini belgilovchi ulkan va ulug'vor tarixiy meroslarimizni dunyo miqyosida namoyish etishning barcha imkoniyatlari mavjud. Muzey-faqat tarixiy meros, san'at asarlarini asrash va saqlashgagina xizmat qilib qolmay, tarbiyaning eng ta'sirchan, omilkor vositasi hamdir. Zero, buni tarbiyaning hyech bir usuli bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Avlodlarimizni uzoq o'tmish ma'naviyati va madaniyatidan bahramand etish, ularning qalbida Vatanga, shu aziz tuproqqa mehr ruhini singdirishda muzeylarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan, «Muzey ko'rgazmalararo sayohat» nomida bolalarga mo'ljallangan turli adabiyotlar salmog'ini oshirish va saviyasini ko'tarish lozim. Televidenieda muzeylar haqida ko'rsatuvlar ko'lamini kengaytirish, uning mazmundorligi va ta'sirchanligiga erishish ham davrning muhim talabidir.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, davr suronlaridan o'tib, bizgacha yetib kelgan-u hatto temirdan yasalgan oddiygina igna bo'lganda ham izsiz-samarasiz yo'qolmasligi, san'at asarlari ruhi bizlar bilan doimo yonma-yon yurmog'i lozim. Bu, eng avvalo, har bir muzey xodimidan o'z ishiga cheksiz ma'suliyat bilan yondashuvni talab qiladi.

Ilmiy jamlash, fondlarni saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish masalalari katta amaliy ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. Ko'pincha tarixning jonli guvohlari deb ataladigan dalillar, o'tmishning bebaho xazinalarini saqlash muzey ashyolarining to'g'ri ilmiy hisob-kitoblariga, ularning to'g'ri tasniflanishiga, ilmiy xolislik, tarixiylik, zamonaviy-ilmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan talqin etishga bog'liq bo'ladi.

Bu yerda muzeylarning bugungi kundagi faoliyatining yana bir muhim jihatni haqida eslab o'tish zarur. Xususan, O'zbekistonning mustaqil suveren, demokratik huquqqa ega bo'lgan davlat sifatida tiklanish va rivojlanish jarayonida sodir bo'layotgan ulkan tarixiy o'zgarishlardan guvohlik beruvchi tarixiy g'alabalarga oid yodgorliklarni hozirgi va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish haqida qayg'urish ham kerak.

Muzey fondlarini saqlashga turli guruhlardagi harorat, namlik tartibini, havoni bulg‘atuvchi omillardan himoya qilishni, to‘g‘ri yorug‘lik tartibini, biologik zararkunandalarga qarshi kurashni va nihoyat muzey ashyolarini mexanik zararlanishdan himoya etishni, shu jumladan, favqulodda holatlarda muzey fondlarini himoya etishni hisobga olgan holda muzey ashyolarini saqlash uchun eng samarador sharoit yaratishga e’tiborni kuchaytirish shu kunning amaliy jihatdan yana bir muhim vazifasi hisoblanadi.

Muzey ekspozitsiyalarini zamonaviy uslubda xal etish, ularni tubdan yaxshilash, asl ma'nodagi yangi xom-ashyolar, zamonaviy muzey jihozlari bilan boyitish muzey tarmog‘i faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi ekspozitsiyalarni, ularning chuqur o‘ylab chiqilgan mavzu loyihasini, ulardagи turli ekspozitsion ashyolarning keng miqyosda uyg‘unlashuvini ishlab chiqish zarur. Bunda asosiy negizning tashkil etilishi, muzey ashyolari – ekspozitsiyalarga alohida e’tibor qaratish kerak. Zarur joylarda muzey ashyolari va muzeylardan tashqari ob’ektlarni, ilmiy-ko‘makchi ekspozitsion ashyolar, matnlar va fotosharhlardan tortib, ekspozitsiyadagi mo‘ljalni yengillashtiruvchi ko‘rsatkichlargacha bo‘lgan hamma narsani qayta tiklash talab etiladi. Ilmiy-ko‘makchi ashyolardan foydalanish zamonaviy muzey ishini jahon andozalari darajasida tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi. Modellar va maketlar, fotoyozuvlар, haritalar, chizma va rejalar, zamonaviy texnik jihozlar, audio, vidiotexnika bilan uyg‘unlikda tomoshabinning muzey ekspozitsiyasi haqida hikoya qiluvchi voqyea-hodisalarни chuqurroq, to‘laroq va yorqinroq his etishiga yordam beradi.

Juda katta, qudratli kuchga ega bo‘lgan ma’naviyatni tiklash, rivojlantirishda, uni kishilar ijtimoiy ongiga singdirishda tarixiy-madaniy yodgorliklar, muzeylarning roli va o‘rni benihoyadir. Bu borada ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1999 yil 12 yanvardagi farmoni juda muhim

ahamiyatga molik voqyea bo‘ldi. Farmonda ko‘tarilgan masalalar o‘z ahamiyati, qamrovi jihatidan juda muhim bo‘lib, ular O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar, millatlar o‘rtasida barqarorlikni ta‘minlashda, ayniqsa, o‘zbek xalqining o‘zligini anglashda alohida o‘rin tutadi. Ayni paytda, ushbu hujjatda muzeylar faoliyatini takomillashtirishning madaniy, iqtisodiy tomonlari, mazkur madaniy-ma'rifiy muassasalarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim ahamiyati masalalari o‘zining yorqin ifodasini topgan. Darhaqiqat, O‘zbekiston va o‘zbek xalqi jahon hamjamiyatida o‘zining alohida o‘rniga ega. Hududimizdagi to‘rt mingdan ortiq madaniy tarixiy yodgorliklar esa bunga guvohdir. O‘zbekistonda jahon madaniyatining noyob gavharlari ko‘p bo‘lgan. “YuNeSKO” kabi nufuzli tashkilot muhofazasiga olingan qadimiy Buxoro va Xiva kabi muzey shaharlarning yubleylari keng nishonlandi.

Yuqorida qayd etganimizdek, O‘zbekiston tarixiy obidalar va tabarruk qadamjolarini sanab adog‘iga yetish qiyin bo‘lgan mamlakatdir. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutining tashkil etilishini ham O‘zbekiston va o‘zbek xalqining buyuk hissasi nuqtai nazaridan baholash mumkin. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston respublikasi madaniy-tarixiy yodgorliklar faoliyatidagi o‘ziga xos jihatlarga ma’naviyati, xususan, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy qadriyatlarni targ‘ib etishning muhim usullaridan biri sifatida alohida e’tibor bermoqda.

Muzeylar tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va tashviq qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-ma'rifiy maskan bo‘lib, o‘zining ekspozitsion va ko‘rgazmalarini vositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizning turli shaharlarida, jumladan, poytaxt Toshkentda 1996 yil “Temuriylar tarixi davlat muzeyi”, 2002 yilda “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi hamda Termizda “Arxeologiya muzeyi” tashkil topdi. “O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi”, “O‘zbekiston Davlat San‘at muzeyi” va

viloyatlardagi qator muzeylar qayta ta'mirlandi. Hozirgi kunda respublikamizda 1200 dan ortiq turli yo‘nalishdagi katta-kichik muzeylar faoliyat ko‘rsatmoqda<sup>28</sup>.

“Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998 yil 12 yanvardagi PF-1319-sonli Farmoni muzeyshunoslar ko‘pdan kutgan hujjat bo‘lib, muzeyshunoslik fanining ravnaqiga keng yo‘l ochib berdi. Farmonda ko‘zlangan maqsadlardan biri, respublikamizdagi barcha muzeylarni yagona bir tizimga birlashtirish, ya’ni ularni ma’naviy boshqaruvchi markaziy rahbar organ yaratishdan iborat edi. O‘scha Farmonga binoan yangi tashkil topgan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi faoliyatining birinchi kunlaridanoq o‘zining asosiy yo‘nalishlarini belgilab, amalga joriy etish lozim bo‘lgan vazifalarni aniqladi:

1. Respublikamiz muzeylari o‘z yo‘nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o‘rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqlol ruhidagi ekspozitsiyalar yaratilishi zarurligi ;
2. Asrlar davomida yaratilib, chetga chiqib ketgan merosimizni Vatanimizga qaytarish;
3. Muzeylarni ma’naviyat o‘chog‘iga aylantirib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga davlatimiz tarixiga, qadimda asos solingan ajdodlarimiz merosiga nisbatan g‘urur va faxr tuyg‘usini singdirish;
4. Muzeylarimizdagi boy eksponatlarni, yutuqlarimizni jahon jamoatchiligiga tanitish maqsadida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, viloyatlararo ko‘rgazmalar tashkil etishga ko‘maklashish;
5. Xalqaro turizmni rivojlantirib, O‘zbekiston muzeylariga chet ellik sayyoohlarni jalb qilib, ularga yuksak madaniy xizmat ko‘rsatish;
6. Muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro‘yxatini tuzish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish hamda noyob eksponatlar aks etgan otkritkalar, bukletlar, yo‘l ko‘rsatkichlari, albomlar, kataloglar chop etish;

---

<sup>28</sup> O`ljayeva Sh. Muzeystvushunoslik (o`quv qo`llanma). -T.: Fan, 2002. -B.57-58.

7. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliv o‘quv yurtlariga muzeishunos olimlarni jalb etib, o‘qitish usullarini takomillashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarini amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lab olib borish, respublikadagi yetakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish.

Shu yillarda muzeishunos olimlarimiz respublikamizdagi muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash niyatida muzeylarni rivojlantirishning maxsus ilmiy tamoyillarini ishlab chiqdilar. Mutaxassislar fikricha, bu borada O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi ekspozitsiyasining ilmiy tamoyillari barcha muzeylar uchun namuna bo‘la oladi. Hozir tamoyil va tematik-ekspozitsion rejalar ko‘paytirilib, respublikamizdagi barcha muzeylarga tarqatildi.

Keyingi yillar davomida muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Respublika “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi 2002-yil 16-mayda “XXI asrda O‘zbekiston muzeylari” mavzuida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muzeylarni milliy istiqlol g‘oyasiga asoslanib jihozlanishning ahvolini o‘rganish va bu borada ularga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi 2002-yil 11-iyundagi 07-105-282-sonli qarori respublikamizdagi barcha muzeylarning faoliyatini o‘rganishga qaratildi.

Mazkur hujjatga binoan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tomonidan bir guruh yetakchi mutaxassis olimlarni, muzeishunoslarni jalb etgan holda ishchi guruhi tuzildi.

Muzeylar o‘zida ma'lum bir davr tarixi va ma'lum bir eksponat haqida aniq ma'lumot berishga mo‘ljallangan tabarruk dargohdir.

Buxoro muzey-qo‘riqxonasida yangi “Ochiq xazina” kompyuter markazi Internet tarmog‘ida o‘z saytini yaratib, muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar tizimini dunyoning barcha mamlakatlariga yetkazib berish imkoniyatiga ega. Bunday holat, albatta, ushbu muzeyni jahon muzeylari bilan hamkorligini o‘rnatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikadagi barcha muzey rahbarlari bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan ilmiy-uslubiy yo‘nalishda ishlab, milliy istiqlol

g‘oyalari ruhida muzey ishini yanada takomillashtirsa, mavjud muammolar astasekin bartaraf bo‘ladi, O‘zbekiston muzeylari keng xalq ommasi orasida madaniyat va ma'rifat tarqatish ishida samarali ishlarni amalga oshiradilar.

## **2.2. Tarbiyaviy ishlar tizimida muzeylarning o`rni**

Mustaqil O‘zbekiston jahondagi eng ilg‘or mamlakatlar safidan o‘rin topib, barqaror rivojlanishi uchun mustaqillik dunyoqarashiga ega bo‘lgan, milliy iftixor tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtida fuqarolik mas’uliyatini chuqur his etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o‘zlashtirgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Mustaqillik O‘zbekistonimizda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash masalasiga katta e`tibor berilayotganligidan quvonamiz, fahrlanamiz. Yosh kishini bo`yinbog’ini chiroyli tang’ish, teatrda o`zini yaxshi tutishga o`rgatish qiyin emas. O`tmish avlodlar merosini uning hayotiy ehtiyoji ekanligini anglatish esa mushkuldir, bu shunchaki maqsad emas, balki madaniyat yanada rivojlanishining zaruriy shartidir. Axir hayot bir joyda turib qolmaydi. Bugun bizga mikrokal’kulyatorlar maqul tushgan bo`lsa, ertaga komp’yuterlar zaruriyatga aylandi. Kim buni tushunib etmasa, almisoqdan qolgan bisot bilan yashashga umid qilsa, u holda hayotdan orqada qolib ketishi aniq.

Milliy g‘urur insonni o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni tomgan qishloq yoki shahar, ota-bobolari, avlod va ajdodlarining maskanini ulug‘lashda, ota-onasi, aka-ukalari, xeshu aqrabolarini e'zozlashda, yurtining o‘tmishi, buguni, kelajagi bilan faxrlanishda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham, Yangi jamiyat qurilayotgan bugungi sharoitda, Prezidentimiz aytganidek: “Vatan tuyg‘usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdahohday muqaddas, sajdahohday pok va ulug‘ bo‘lmog‘i kerak...”

Milliy g‘urur – bu Vatanni sevish haqidagi balandparvoz gaplar, chaqiriqlar, shiorlar emas, balki el-yurtning porloq kelajagi uchun, xalq uchun, millat farovonligi yo‘lida chinakamiga halol mehnat qilishdir. Ona zaminni chin qalbdan

sevmoq, uning manfaati yo‘lida butun bilim, qobiliyat, kuch-quvvatni safarbar qilmoq – vatanparvarlik belgisidir.

Milliy g‘urur tuyg‘usi milliy takabburlik, milliy manmansirash, milliy kekkayishga tamomila qarama-qarshidir.

Milliy g‘ururning shakllanishida madaniy meros benihoya kata rol o‘ynaydi. Chunki, madaniy meros har bir millatning qadr-qimmatidir. Inson aql-zakovatining mevasi bo‘lmish madaniy meros, xalqning bir avloddan ikkinchi avlodiga o‘tib kelayotgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarining yig‘indisidir. Xudi shuning uchun ham madaniy merosning boyib borishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning har tomonlama o‘zlashtirilishi, jahon madaniyati qo‘lga kiritgan yutuqlarni chuqr bilish va unga amal qilish katta ahamiyatga egadir. Madaniy merosimizni har tomonlama o‘rganish jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yigit va qizlarda milliy g‘ururning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Butun jahonni lol qoldirib, ming-minglab sayyoohlarning kqzini qamashtirib, hayratga solayotgan obidalar o‘z bag‘riga mashhur olimlar, fozillar, shoirlar, xattotlar, rassomlarni birlashtirgan, sayillar, ma'rakalarda esa fuqarolar kayfiyatini ko‘targan, ma’naviy quvvat bergan, yoshlarni esa odobu axloqqa, halolligu poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilishga chaqirgan. Xalqimizning madaniy merosi haqida yoshlarga bor haqiqatni yetkazish – ularda milliy g‘ururni shakllantirishga yordam beradi.

Shu kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan har tomonlama rivojlangan, ma’naviy yetuk komil inson tarbiyasi hamjamiyatimizning barcha jabhalarida o‘ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda.

Bugungi o‘z-o‘zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda ona yurtning har bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o‘rganish, diliqa jo etishdan ham muqaddasroq burch yo‘q.. Shuning uchun ham o‘tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganish, muhofaza qilishning rolini oshirish muammolarini hal qilishga kata ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” kitobchasida chuqur ilmiy ahamiyatga ega tarixiy mavzudagi qator masalalar qo‘yilganki, ularni to‘g‘ri talqin qilmay va hal qilinishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay millatimizning, xalqimizning kelajagi haqida gapirib bo‘lmaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimiz oldida bir necha yangi va muhim muammolar paydo bo‘ldi. Ularning mohiyati, mazmuni eng avvalo millatimizni har tomonlama rivojlanishi va ravnaq topishini ta‘minlash bilan bog‘liqidir. Prezidentimiz I. A. Karimov tarix fanining dolzarb muammolari haqidagi maqolasida bu boradagi muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatib berdi: “Ma’naviyatni tiklash, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak”.

Uzoq o‘tmish davrlarga borib taqaladigan tarixga boy, qadim madaniyatga ega bo‘lgan xalqimiz oldida o‘z o‘tmishini, kelib chiqishi, ota-bobolari, urf-odatlari, ma’naviy boyliklarini, yuksak madaniyati, san’atini yanada chuqurroq o‘rganish, anglash va bevosita davom ettirishdek vazifa turadi. Prezidentimiz “...tarix – xalq ma’naviyatining asosidir”, deb ta’kidlar ekan, mustaqil vatanning har bir fuqarosi, ayniqsa uning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar o‘z tarixi va madaniyatini yaxshi bilishlari shartdir.

Tarixiy xotirani shakllantirish, uni rivojlantirish, shu bilan birga hozirgi avlod ruhida milliy g‘urur tuyg‘ularini paydo qilish ishida barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida muzeylar ham o‘ziga yarasha hissasini qo‘shmoqda<sup>29</sup>

Darslik, qo‘llanma kitoblardan biz nazariy bilimlarni olar ekanmiz, shu haqdagi Amaliy ko‘rgazmalar, ashyoviy dalillar namoyish etilgan muzeylar bevosita ana shu nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayni paytda falsafiy meros ham xalq ma’naviyatining ajralmas va asosiy qismi hisoblanadi. Darhaqiqat, tarix, tarixiy xotira ham ijtimoiy-falsafiy merosning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim manbalaridan biridir. Shu sababli ularning ikkovi ham inson faoliyati, xalqning hayot yo‘lini, tarixiy jarayonning

---

<sup>29</sup> Baxriddinov O. Muzeylar-tariximiz guvohi // Namangan haqiqati. 2004, 10 mart.

umumiy mohiyatini tushunish ob'ektidir. Shu bois yurtboshimizning “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” va “Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, o‘zlikni anglash mumkin emas” degan fikrlari juda qimmatlidir. Shuni aytish kerakki, tarixni tushunishda, yaqin o‘tmishda bo‘lganidek faqat ishlab chiqarish omillariga bog‘lab o‘rganmasdan, balki uni har tomonlama anglab, ayniqsa, ma’naviyatimizning asosiy manbai va negizi sifatida o‘rganish zarur.

Tarixiy xotira – har bir xalq, millat o‘zining zamon va makondagi o‘rnini, nasl-nasabini, o‘zligini anglashi, o‘zining haqiqiy tarixini, ma’naviyat va madaniyati jihatdan tutgan o‘rnini, uning rivojiga qo‘sghan hissasini, o‘zining milshliy iftixorini, g‘ururini mustaqil va xolisona anglab olishidir.

Albatta, agar xalq o‘zining tarixiy xotirasiga, tarixiy ongiga ega bo‘lsa, u muqarrar o‘zi kechirgan tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq tushunadi va talqin qiladi<sup>30</sup>. Bu urinishlar xalqning vakillari – olimlari, mutafakkirlarining ilmiy faoliyatida mujassamlanadi va ular tomonidan jamiyatni, inson hayotini va ma’naviyatini ilmiy-nazariy tahlil etishda, uning ma'lum nazariyasini, tamoyillarini yaratishda namoyon bo‘ladi.

Inson va jamiyat hayoti zaminida shakllangan va keyinchalik tarixiy xotira asosini tashkil qiladigan ma’naviy qadriyatlar, ya’ni “yo’llar” keyingi avlodlar ichki dunyosi orqali ma’naviy meros sifatida saqlanadi va rivojlanadi. Insonlarni muayyan bir guruh, jamoa sifatida ma'lum ma’naviy omil birlashtirib turadi.

Ma’naviyat uzoq tarixga asoslangan bo‘lib, barcha o‘tgan insonlar, avlodlar ruhini, ya’ni fikrlari, g‘oyalari va e’tiqodlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’naviy omil g‘oyat murakkab va ko‘pqirrali bo‘lib, albatta, tarixiy xotira, milliy ongi ham qamrab oladi. Chunki ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan holda rivojlanib boradi va bir-birining takomillashishiga olib keladi.

Albatta, har bir xalq, millatning tarixiy xotirasini qamrab oladigan tarixi va milliy ongida ma'lum dinga mansubligi ham aks etadi.

---

<sup>30</sup> Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San`at. 2010. -B. 17.

Prezidentimiz tarixiy xotiraning yana bir nihoyatda muhim vazifasiga katta e'tibor beradi. U ham bo'lsa tarixiy xotiraning milliy iftixor, milliy g'urumi rivojlantirishdagi roldir. Ma'lum xalq, millatning iftixori masalasiga Abu Rayhon Beruniy quyidagicha yondoshadi: Har bir xalq jahon madaniyatiga va ilmiga o'zining maxsus hissasini qo'shamdi, shu bilan u boshqa xalqlar orasida o'ziga yarasha joy beradi, bu ilmiy-madaniy muvaffaqiyatlari bilan esa faxrlansa va mag'rurlansa arziydi. Beruniyning yayni ta'rifi bo'yicha, har bir xalq qandaydir fan yoki tajribani rivojlantirganligi bilan farqlanadi.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz xalqimizning milliy iftixoridir. Shu kabi buyuk zotlarning asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etgan boy ma'naviyati tufayli xalqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Anna shu milliy ong, ana shu milliy g'urur bugungi istiqbolimizning oltin poydevoridir. Bu poydevorga Shiroq va To'maris, Beruniy va Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Bobur, Navoiy va Ulug'bek kabi yuzlab ulug' zotlar asos solganlar. Bobokalonlarimiz – Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning nomlarini faxr bilan tilga olamiz. Ulug' bobomiz Xoja Ahmad Yassaviy ruhi poklariga ehtiromimiz benihoya.

Yuqorida ta'kidlangan ulug' alloma va mutufakkirlar ijodi va faoliyatlarini yoritish, ularni yanada ta'sirchan, esda qolarli darajada aks ettirib berishni muzeylar o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Muzeylar faoliyatida anna shu boy ma'naviy va moddiy boyliklar, madaniy yodgorliklar namoyishi va ilmiy tahlili asosiy o'rinni egallaydi. Muzeyda namoyish qilinayotgan har bir eksponat, xoh u qimmatbaho metal yoki toshlardan ishlangan bo'lsin, xoh Amaliy san'atning yorqin namunasi bo'lsin, yoki ma'naviy merosning betakror yorqin qirralari bo'lsin, u shu xalqning o'tmish hayoti, tafakkuri, iste'dodi, iqtidoridan darak beradi.

Muzeylar tarixiy xotirani jonlashtirish omili bo'lib xizmat qilar ekan, unda namoyish etilayotgan materiallar ashyoviy dalil sifatida o'z davriga xos xususiyatlarni aks ettirganligi Bilan, o'sha davr madaniyati, san'atidan beradigan

xabari bilan juda qimmatlidir. Ular xalqimizning yuksak rivojlangan madaniyati, adabiyoti, san'ati hamda ma'naviy dunyoqarashiga asoslangan xususiyatlari bilan tomoshabin e'tiborini qozonadi. Unda bevosita shu buyumlarda aks etgan joziba, sehr, geometrik aniqlik, kimyoviy barkamollik, qurilish-arxitektura inshootlarining o'ta aniq va pishiq loyihamalariga nisbatan inson aqlini lol qoldiradigan bir ta'sirini uyg'otadiki, bu uning beixtiyor faxrlanish, qoyil qolish va undan o'rnak olib yangi san'at asarlarini yaratish sari ilhom uyg'otadi.

Muzeylarning ommaviy-g'oyaviy, ta'limiy ishi kommunikatsiyasining muhim elementini tashkil qilgan holda, kamolotga etgan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, uni g`oyaviy, ahloqiy, estetik tarbiyalashga, bilimdonligini, axborotlilagini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan<sup>31</sup>.

Muzey kommunikatsiyasining ekspozitsiya vistavka va boshqa ko`plab shakllaridan foydalangan holda muzeylar aholining turli ijtimoiy, kasbiy, turli yoshdagi kategoriylariga ta`sir ko`rsatadi.

Ommaviy ish doirasi muzey faoliyatining boshqa yo`nalishlari bilan yaqindan aloqadorlik asosida ko`rib chiqilmogi lozim.

Muzeylarning g`oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishi, ilmiylik, hayot bilan aloqadorlik kabi printsiplarga tayanadi.

Muzeylar milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbiga va ongiga singdirishda, milliy o'zligimizni anglashda, ijtimoiy faollikni o'rgatishda, komil insonni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega.

Tarixiy profildagi muzeylarning tarbiyaviy potentsialini o'ziga xos xususiyatlari asosida xalqning ko'p qirrali tarixini aks ettiruvchi bevosita guvohliklar, asl yodgorliklardan foydalanish yotadi.

Predmetlilik printsipi, nafaqat tarixiy bilimlar targ'ibotining o'ziga xosligini ta`minlaydi, balki yuqori darajadagi isbotlilik, ta`sirchanlik va tabiiyki «tarix bilan tarbiyalash» ning faolligin ta`minlaydi. Muzeylar targ'ibotga qo'yilayotgan

---

<sup>31</sup> Mirzaaliyev.E. Baxriddinov O. Tarix-ma`naviyat ko`zgusi. -Namangan. 2006. -B.. 17-18.

zamonaviy talablarga amal qilib bilimlarni yanada ishonchliroq, imkon qadar ko'rgazmali va xotirada mustahkam qoladigan etib etkazishga intiladilar.

#### a) Muzey pedagogikasi

Zamonaviy jamiyat muzeyning g'oyaviy-tarbiyaviy va ta`limiy imkoniyatlaridan mumkin qadar samarali foydalanishdan manfaatdordir. Muzey faoliyatining bu yo'nalishi nazariy va ilmiy-metodik asoslash zaruriyati yangi maxsus ilmiy fan-muzey pedagogikasining vujudga kelishini belgilaydi.

Muzeyning pedagogik ta`sirini mazmuni, metodlari va shakllari, axolining turli kategoriyalarga ta`sirining xususiyatlari, shuningdek, muzeyni madaniy muassasalar tizimidagi o'rmini belgilash bilan bog'liq muammolar muzey pedagogikasining predmeti hisoblanadi.

Shu munosabat bilan muzey pedagogikasi tomonidan:

- muzey pedagogik jarayonning qonuniyatlarini va ularidan amaliyotda foydalanish, pedagogik rahbarlik darajasini o'stirish imkoniyatlari o'rganiladi.
- Muzeylarning muzey auditoriyasining turli ijtimoiy va yosh guruhlarga pedagogik ta`sirining xususiyatlari aniqlanadi
- Turli profildagi, tipdagagi, turdagagi muzeylar g'oyaviy-tarbiyaviy, ta`limiy faoliyati tajribalari umumlashtiriladi va shu asosda ilmiy metodik ko'rsatmalar ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi.
- Muzeylarning boshqa pedagogik muassasalar bilan hamkorlikdagi ishining yanada samarali shakl va metodlari aniqlanadi.
- Muzeylarning pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirilishning rivojlanishi prognoz qilinadi.

Muzey pedagogikasi tomonidan hal etiladigan masalalar qatoriga ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, faol hayotiy pozitsiyani ishlab chiqish kabi shaxs shakllanishining turli jarayonlarini faollashtirish ham kiradi.

Muzeyda pedagogik tadbirlarni tashkil etish, ularni boshqarish, yangi shakllarni aniqlash va joriy qilish tomoshabinlarni qiziqishlarini, muzey axborotini o'zlashtirishini o'rganishga tayanadi

Muzey pedagogikasi yoshlarga alohida e`tibor beradi. Maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishslash istiqbollidir.

Ishchilar va qishloq aholini muzeylarga jalg etish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muzey pedagoglari va pedagogik tarkibni tayyorlash va malakasini oshirish muzey pedagogikasining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur fanning ilmiy va amaliy yutuqlaridan Oliy o'quv yurtlarida muzeyshunoslarni tayyorlashda, muzey xodimlarini malakasini oshirish institatlari va kurslarida, nazariy va amaliy mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish va o'tkazishda foydalaniladi<sup>32</sup>.

Muzey pedagogikasi tomonidan ishlab chiqiladigan masalalar doirasiga g'oyaviy-tarbiyaviy, ta`limiy faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishni tashkil etish va rejalashtirish metodikasi va amaliyoti ham kiradi.

Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy, ta`limiy ishlarning turlari va shakllari.

Muzey faoliyatining bu yo'nalishi pedagogik faoliyatning bir qismi hisoblanadi va uning oldiga doimo yangi talablar qo'yiladi, yanada keng imkoniyatlar ochiladi. Uning vazifalari, shakl va metodlari turli-tumandir.

### **Ekskursiya ishi.**

Ekskursiya deb muzey va muzey tashqarisidagi ob`ektlarni bilish va tarbiyaviy maqsadlarda mutaxassis-ekskursovod rahbarligida belgilangan mavzu va yo'nalish bo'yicha jamoaviy tomosha qilishdir. Bu ta`rifga ikki o'zaro bog'liq tushuncha kiradi: ekskursiya muzeyni yoki muzeydan tashqari ob`ektni ko'rgani kelgan odamlar guruhi va ekskursiya ilmiy pedagogik mehnat turi, u muzey ekspozitsiyasini, vistavka, ob`ektni namoyish qilish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Muzey pedagoglari tomonidan ishlab chiqiladigan ekskursiyalar bir-biridan mavzusining xarakteri, vazifasi, guruh tarkibi, uning istaklari va muzey madaniyatiga oshnoligiga qarab farqlanadi, lekin bu ekskursiyalarning barchasi

---

<sup>32</sup> Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. –B.179.

bitta umumiy belgiga ega – ular yagona metodik asos-ekskursion metod asosiga quriladi.

Muzeyga kelgan guruh bilan ekskursovodning bevosita muloqoti ekspozitsion metodning asosiy xususiyati hisoblanadi. Bu muloqot jarayonida, muzey ekspozitsiyasi bazasida muzeyning ta`limiy va tarbiyaviy vazifasi amalga oshiriladi.

Ekskursion metod asosida ko'rgazmali idrok, muzey ob`ektining jonli ifodasi yotadi. Muzeyda qo'llaniladigan «qarash bu xali ko'rish degani emas» degan aforizm bor. Bu aforizm ekspozitsion metodning asosiy vazifasini eslatib turadi. Bu vazifa «ko'rishga» o'rganish, ya`ni tomoshabin bilan ekspozitsiyani va uning aloxida elementlarini tomosha qila turib uning asosiy xususiyatlarini ajrata olishga, undagi axborotni egallay bilishga o'rgatishdir.

Ekskursiya ekskursovod va tomoshabinlar guruhining hamkorlikdagi ishidir. Guruhlarning qanday tarkibda bo'lishidan qat'iy nazar ekskursovodning vazifasi guruhning har bir asosini muzey ostonasidan qadam bosib o'tgandan so'ng o'ziga xos dunyoga, o'zining unsiz tilida buyuk tarixiy voqealar haqida hikoya qiluvchi tarixiy manbalar va yodgorliklar dunyosiga tushib qolganligiga ishontirish kerak. Ekskurstovod bilimli, e`tiqodlili, nutq madaniyatini yaxshi egallagan va tashqi ko'rinishli bo'lishi lozim.

Muzey tomonidan o'tkaziladigan ekskursiyalar turli-tumandir. Ekskursiyalar quyidagilarga qarab ajratiladi: o'tkazish joyi va ko'rsatish ob`ektiga qarab, tematikasining xarakteri; maksadli vazifasiga qarab; ekskursion guruqlar tarkibiga qarab.

O'tkazish joyi va ko'rsatish ob`ekti:

- a) muzey ichida: ekspozitsiya, vistavka, fond saklovi.
- b) me`morchilik, tarixiy, madaniy yodgorliklar.
- v) kompleks ekskursiyalar.

**Tematikasining xarakteri:**

a) Obzor ekskursiyalar muzey haqidagi umumiy tasavvurlar beriladi. Ixtisoslik fani mavzusidagi ekskursiyalar ikki xil bo'ladi. 1) bir nechta tarixiy davrlarni qamrab oladi. Masalan: «Ijtimoiy-iqtisodiy farmatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi». v) ixtisoslashtirilgan – tarixiy pozitsiya materiallaridan boshqa fanning u yoki bu masalani yoritish uchun.

### **Maqsadli vazifasi:**

- a) Ilmiy ma`rifiy ekskursiyalar;
- b) O'quv ekskursiyalari (o'quvchilar o'tilgan materialni chuqurlashtirish, mustahkamlash; ekskursiya dars).

### **Ekskursiya guruhlari tarkibi:**

Ekskursiya guruhlari, yoki, ijtimoiy, kasbiy va milliy tarkibi, ma'lumoti, yashash joyi bilan farqlanadi. Har biriga bir xil mavzuga o'ziga xos yondoshish talab qilinadi.

Ekskursiyaning sifati ko'p jihatdan uni ilmiy va metodik tayyorlashni tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Ekskursiyani tayyorlashning asosiy bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz.

Birinchi bosqich muzeyning yillik rejasidan kelib chiqib ekskursiya mavzusini aniqlash, uning mazmuni bilan tanishish. Buning uchun adabiyotlarni, asosan o'quv qo'llanmalarni va mazkur mavzudagi muzey ekspozitsiyasini bosqich – ekskursiya rejasini tuzish. Bu bosqichda mavjud adabiyot va manbaalar to'liq o'r ganiladi, fondlarda maxsus mashg'ulotlar olib boriladi.

### **Ekskursiyaning o'tkazilishi:**

- a) namoyishkorona ekskursovod «ko'rishga» yordam beradi. (kursatishni suz bilan kushilishi).
- b) hikoyali tomoshabin ekspozitsiyaga so'z bilan, ekskursovodning hikoyasi bilan qiziqtiriladi.
- v) evristik (evrika) savol javob shaklida.
- g) vazifa berish.
- d) o'yin usuli rolga kirishish.
- e) ma'ruza illyustratsiya.

Har bir ekskursiya uch qismdan: kirish suhbat; ekskursiyaning asosiy qismi; yakuniy suhbatdan iborat bo'ladi. Birinchi qism guruh bilan tanishish va muzeyni tanishtirish uchun juda muximdir.

### **Boshqa turlari.**

1. Muzey darslari va yozma ishlar.
2. Tugaraklar va klublar
3. Muzey olimpiadalari va konkurslar.
4. Ma`ruzalar va tematik kechalar.
5. Muzeylar huzuridagi ilmiy yordamchi kabinetlar o'ziga xos kichik muzeylar
6. Ochiq eshiklar kuni (odatda 18 may xalqaro muzeylar kunida).
7. Biror bir sohaviy bayramga bag'ishlangan tadbirlar.
8. Muzeobus yoki vagondagi muzey.

Mavzuning almashinushi. Axborot va reklama.

Bugun jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xalqning madaniy darajasini o'sib borishi, tarixga, tarixiy yodgorliklarga qiziqishni ortib borishi, oxir-oqibat muzeylarning ommalashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga jamiyatichilikda axborotni boshlangich maktabdan olishga bo'lган intilish kuchaymoqda. Biroq bu ob`ektiv jarayonlar, muzeyni ommaviylashtirishga qo'shimcha kuch sarflashdan ozod qilmaydi. Muzeyning ilmiy nashrlari uning ommaviylashuviga katta xissa qo'shadi. Kataloglar fondlar haqida ma'lumot beradi, muzey predmetlarini tushinishga yordam beradi.

Muzeylarning ommaviylashtirishda va reklamasida ommaviy axborot vositalarining o'rni juda ham katta. Ular o'z dasturlarida va sahifalarida muzey ishini yoritishadi, muzey ekspozitsiyasini, ularda saqlanayotgan predmet va kollektsiyalarini ko'rsatishadi, ular haqida hikoya qilishadi, reklama ma'lumotlarini berishadi.

Muzey reklamaning turli shakllaridan foydalanadi. Reklamalar butun aholiga qaratilgan yoki muzeyga keluvchilarning biron – bir kategoriyasiga qaratilgan

bo'lishi mumkin<sup>33</sup>. Afisha muzey reklamasining an`anaviy shakli hisoblanadi. U tasvir va matnning birligida muzeyning bir butun obrazini beruvchi, uning diqqatga sazovor tomonlariga, ekspozitsiya yoki vistavkaga bag'ishlangan bo'yoqli yoki chizma plakatdir. Afisha diqqatni jalg etish, muzeyga borish istagini xosil qilish kerak. Afishaning mazmuni tez-tez o'zgarib turadi, lekin uning ayrim elementlari doimiy bo'lishi lozim, masalan muzeyning emblemasi.

- 1) esdalik bukletlar; - znachoklar;
- 2) otkritka; - konvert; - marka; kalendarlarda muzey va uning eksponatlarining tasviri.

Ko'rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar tizimida muzeylarning o'rni juda sermaxsul bo'lib, har bir yoshning unib o'sishida o'zining ijobiy samarasini beradi. Muzeylar faqat tarixni o'rganish vositasi emas, balki kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ishlarga reja vazifasini ham o'tashi mumkin.

O'lkani va unda mavjud bo'lgan tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, o'rganish va ulardan foydalanish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Tarixchilarga bu qonun muqaddas dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Biz yoshlarni yodgorliklarni avaylab asrashga, tarixiy obidalarga mehr-muhabbat bilan qarashga o'rgatib, bu yodgorliklar faqat o'tmishni o'rganish uchungina emas, shu bilan birga ilm-fanni, xalq maorifi va madaniyatni yanada rivojlantirish uchun ham bebaho durdona ekanligini singdirish ruhida tarbiyalashimiz kerak.

Muzeylar yoshlar oldiga quyidagi vazifalarni: birinchidan, jamiyat hayoti va xalq turmushidagi eng muhim tarixiy voqealarni, davlat va harbiy arboblarning, xalq qahramonlarining hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan binolar, inshootlar, esdalik joylarni o'rganishni, ikkinchidan, arxeologik yodgorliklarni: ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar, korxonalar, kanallar, yo'llarning qoldiqlari, qadimiy dafn joylar – mozoratlarni, tosh haykallar, qoyalardagi tasvirlarni, qadimiy buyumlarni o'rganishni; uchinchidan, me'morchilik obidalari, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, ko'chalar, shahar

---

<sup>33</sup> Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeyshunoslik – T.: Voris Ali, 2007. –B.39.

va boshqa aholi yashaydigan manzillarning qadimiy tuzilishi, qurilishi va qoldiqlarini; sanoat, harbiy, diniy, xalq me`morchiligi inshootlarini, tabiat landshaftlarini o`rganishni; to`rtinchidan, san`at yodgorliklari – monumental, tasviriy, amaliy-dekorativ va boshqa turdagи san`at asarlarini; beshinchidan, yodgorlik hujjatlari – davlat hokimiyat organlari va davlat boshqaruв organlarining aktlari, boshqa yozma va grafik hujjatlar, kino-foto hujjatlar va tovush yozuvlari, shuningdek, qadimiy va boshqa qo`lyozmalar hamda arxivlar, folklor va muzika yozuvlari va shu kabi nodir materiallarni izlab topish, o`rganish va umumlashtirish vazifalarini qo`yadi.

Maktab muzeyi tashkil qilingan maktablarda o`quvchilarning ijtimoiy fanlardan olayotgan bilimlari, mustaqil ishga va mehnatga, o`tmish tarixi va madaniyatiga qiziqishlari o`sib borayotganligi aniqlanmoqda. Shuningdek, yuqori sinf o`quvchilarining bilim doirasi kun sayin kengayib, dastlabki ilmiy-tadqiqot ishlariga bo`lgan qiziqishi sezilarli darajada o`snoqda. Davlat muzeylari bo`lman rayonlarda maktab muzeyining vazifasi yanada murakkabroq bo`ladi. Bunday hollarda maktab muzeyi mahalliy aholini ham o`ziga jalb qiladi va tarixiy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanishga bo`lgan qiziqishini orttiradi.

Maktab muzeyiga asosiy soha qilib madaniyat obidalari va tarixiy joylar tanlab olinsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Chunki muzeylar shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo`lgan har tomonlama rivojlangan, ma'naviy yetuk, komil inson tarbiyasida o`ziga xos alohida o`rin tutadi. Muzeylarda saqlab, namoyish etilayotgan tarixiy hujjat va xalq madaniyatiga oid ashyolar yangi avlodga ajdodlari o`tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo`lgan muhabbat, otabobolari qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo`lish tuyg`usini uyg`otadi. Shuningdek, yoshlarni odobu axloqqa, halolligu poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlaridek mohir, sabr-qanoatli, aqlii,adolatli, haqgo'y, mehr-muruvvatli bo`lishga chaqiradi. Madaniy merosimizni har tomonlama o`rganish jamiyatimiz kelajagi bo`lgan yigit

va qizlarda milliy g‘ururning, milliy iftixor tuyg‘usining shakllanish jarayonini amalga oshiradi.

Mustaqillik tufayli muzeyda olib borilayotgan ilmiy-ommaviy ishlarning mazmun-mohiyati o`zgarishi bilan yuqori saviyaga ko`tarilganligi va bu borada rang-barang tadbirlar o`tkazilayotganligini ko`rishimiz mumkin<sup>34</sup>.

O`qituvchi –tarbiyachi va murabbiylar esa muzey ekspozitsiyasi ko`rgazma zallari, talaba o`quvchi yoshlar uchun amaldagi ko`rgazmali o`quv quroli bo`lib xizmat qilishi mumkinligini yaxshi bilishadi. Shuning uchun ilmiy-amaliy ochiq darslarni bevosita muzey ko`rgazmazallarida jonli o`tkazishlari muntazam yo`lg a qo`yilganligi o`quvchi-talaba yoshlarning nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlashlarida katta manbaga aylangan. O`quv tadbirlarni muzeyda tashkillashtirish va o`tkazishdan maqsad shuki, har bir tadbir jonli o`z davrining nodir, noyob eksponatlaridan foydalanib ko`rgazmali o`tkazilishi yoshlar qalbida ajdodlarimiz merosiga bo`lgan hurmat, ehtirom tuyg`ulari kuchayishida katta omil vazifasini bajaradi. Muzey oliygohlar, kollejlar bilan aloqani olib borishida bir qator muxim tadbirlarni amalga oshirishi mumkin. Masaldan, NamDU tarix bo`limi hamda ijtimoiy madaniy faoliyat yo`nalishi talabalariga o`tiladigan muzeyshunoslik kursi ma`ruza amaliyotlarini muzeyda, shuningdek O`zbekiston tarixini katta qismini muzeyda hamnafas olib borilsa, buning uchun o`quv yurti boshliqlari, dekanlar, kafedralar bilan o`zaro reja asosida kelishib yo`lga qo`yilsa talabalarning bu fanlarni chuqurroq egallahshlarida muzey juda katta manba rolini o`ynaydi. Natijada, talaba muzey zallaridagi, zahiradagi moddiy-madaniyat buyumlarining o`z ko`zi bilan ko`radi va shunga loyiq tahlil qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytilganda yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylarning o`rni va roli kattadir. Muzeyga yoshlarni jonli ekskursiyalarini o`tkazish foydadan holi emasdir. Viloyat va tuman o`lkashunoslik muzeylari shu o`lka madaniyati va san`ati, kasb-kori, amaliy ishlari haqida atroflicha ma`lumot berib, hamma vaqt uzoq-yaqinda yashovchi aholi, ayniqsa maktab bolalari uchun

---

<sup>34</sup> Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. -T.: San`at. 2010. -B. 42.

tez-tez borib turish imkonini beravermaydi. Maktablarda ta`lim jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan tarbiya, madaniy va ma`rifiy yuksalish ishlarida ko`rgazmali qurollarning ahamiyati juda katta. SHuning uchun ham maktablarning o`zida shu hudud tarixi, joylar haqidagi ma`lumotlar, ayniqsa tarixiy obidalar, mashhur kishilar xotira yodgorliklari haqidagi materiallar jamlangan muzeylarning tashkil etilishi bevosita bolalarning o`quv jarayonida olgan bilimlariga qo`shimcha tarzda ma`lumotlarga ega bo`lishlariga olib keladi.

## XULOSA

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o`zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a`zolarini, demokratik tafakkur va milliy g`oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda biz yuqorida ko`rib chiqdik, muzeylarning ahamiyati ortib bormoqda. Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi o`ziga xos urf-odat va an`analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me`moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muxim rol o`ynaydi.

Bu borada prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo`limganidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi", "Tarix-xalq ma`naviyatining asosidir", "Tarixiy xotirasiz keljak yo`q", "O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "Inson uchun tarixdan judo bo`lish-hayotdan judo bo`lish demakdir" degan ahamiyatga molik so`zları muzeylar va muzey xodimlari uchun dasturamal bo`lib xizmat qilmoqda<sup>35</sup>.

Ajdodlarimizdan meros qolgan nodir-noyob eksponatlarni asrab – avaylashimiz, asrlar osha salobat to`kib bizgacha etib kelgan me`moriy obidalarimizni, arxeologik yodgorliklarimizni himoya qilishimiz, shuningdek, ikkinchi jahon urushi davri, azob-uqubatlari, xalqlarimizni matonatli jasoratlari bosib o`tgan hayot yo`llarini atroflicha o`rganishimiz hamda keljak avlodlarga etkazishdek muqaddas ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Mustaqilligimiz sharofati tufayli mamlakatimizda insonni e`zozlash, milliy va ma`naviy qadriyatlаримизни tiklanishiga katta e`tibor qaratilmoqda. Shu jumladan Namangan viloyat hokimligining bevosita rahbarligi ostida viloyatning "Ikkinchi jahon urushi"ga, "Qatog'on qurbanlarini yod etish"ga oid yo`nalishlarni o`rganish, urush ishtirokchilarining hayot yo`lini jangovor ishlarni umumlashtirish, tiklash

---

<sup>35</sup> Karimov.I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va tarqqiyot yo`li. -T.: O`zbekiston, 1992. -B.71.

bo`yicha keng ko`lamli, xayrli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda ayniqsa viloyat “Xotira va qadrlash uyi” ilmiy xodimlari O`zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlari ijtimoiy harakati viloyat kengashi bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir.

Vatan tarixi, xotirasi aynan muzeylarda aks etadi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan 80 dan ortiq davlat muzeylari turli toifalarda va turli yo`nalishlarda bo`lib, bugungi kunda xalqimiz va turli mamlakatlardan tashrif buyurgan ziyoratchilarning ham ma`naviy, ham ma`rifiy jihatdan ongini, ruhiyatini boyitishda muhim amaliyot kasb etmoqda<sup>36</sup>.

2008 yil “Muzeylar to`g’risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu esa muzey xodimlari faoliyatini yanada jonlantirish bilan birga mas`uliyatini ham oshirdi. Muzey xodimlari faoliyati, muzeylarga oid bukletlar, kitoblar, suratlar ko`rgazmasi tashkil etib borilmoqda. Umuman axolini, o`quvchi yoshlarni tarbiyalashda muzeylarning roli beqiyosdir. Chunki barcha eksponatlarda tarixiy jarayon, ajdodlar nafasi bor. Ular qoldirgan ma`naviyat, boy merosni avaylab-asrash, avlodlarga etkazish esa muqaddas burchimizdir.

Ushbu bitiruv ma`naviy ish mavzusining tahlili, shunday xulosalarga kelishimizni va shu yuzasidan quyidagi taklif va istaklarni keltirib chiqardi:

- Mustabid- sovet davrida muzeylarining ijobiy jihatlaridan tashqari salbiy tomonlari ham kuzatildi. Muzeylarning rivojidagi etakchi o`rin mutaxasislar emas, kompartiya va uning rahbarlari egalladi. Muzeylarning asosiy yo`nalishlari xalqni kommunistik ruhda tarbiyalashdan iborat bo`ldi. Ma`muriy yodgorliklar (masjid va madrasalar) ombor, yotoqxonalar va boshqa narsalarga aylantirildi va hakazo.
- O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, muzey ishiga davlat siyosati darajasida e`tibor qaratildi.
- Muzeylarni ixtisoslik bo`yicha malakali kadrlar bilan ta`minlash zarur;

---

<sup>36</sup> Baxriddinov O. Muzeylar-tariximiz guvohi // Namangan haqiqati. 2004, 10 mart.

- ba'zi viloyatlardagi muzeylarning moddiy texnika bazasi eski holatda ekanligi achinarli. Hozirgi zamon muzeylari rivojidan orqada qolgan. Uning iqtisodiy holatini mustahkamlash zarur.
- O`quv yurtlari yoshlari bilan muzeyda aniq maqsadli tadbirlar risolalari ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish zarurdir.
- Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari hayotini aks ettiruvchi suratlari, bukletlar tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir.
- Muzeyda o`quvchi yoshlar uchun alohida to`garaklar joriy etilsa o`zining ijobiy natijasini berishi hozirgi kun talabidir.

## **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati:**

### **I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo`lgan adabiyotlar ro`yxati:**

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
- 1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Каримов И. А. Жайхун соҳилидаги абадий шаҳар // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 56 б.
- 1.5. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 439 b.
- 1.6. Каримов И. А. Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятинин шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.7. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажагимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.8. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.9. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустаҳкам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Xalq sўzi. 2013 йил 2 сентябрь.
- 1.10. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг

асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йилллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маърузаси. O`zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.

1.11. Каримов И. А. Тинчлик ва ахиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И.А.Каримовнинг 9- май “Хотира ва қадрлаш куни” муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

## **II. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xujjatlari**

2.1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrda qabul qilingan “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to`g’risida”gi qarori // Xalq so`zi, 1994 yil 24 dekabr.

2.2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g’risida”gi farmoni // Xalq so`zi, 1998 yil 13 yanvar.

2.3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan qo’llab-quvvatlash masalalari to`g’risida”gi qarori. // Xalq so`zi, 1998 yil 15 mart.

2.4. “Muzeylar to`g’risida”gi O`Zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008 yil 12 sentyabr’. II O`zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to`plami. 2008 yil- №: 37-38-B. 15-20.

## **II. Adabiyotlar:**

- 3.1. Bekmurodov M. Rashidova M. Muzeysunoslik – T.: Voris Ali, 2007.
- 3.2. O`ljayeva Sh. Muzeysunoslik (o`quv qo’llanma). – T.: 2002.
- 3.3. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. - T.: Fan, 1995.

- 3.4. Бартолд В.В. Задача русского востоковедения в Туркестане. Сочинения. – Т.: 9.1977 .
- 3.5. Вайиль М. Валиев П. Розиев М. А. Навоий номли Наманган область музикали драма ва комедия театри. – Т.: Матбуот. 1981.
- 3.6. Davlatov.B. Ibragimov O. Muzeishunoslik atamalarining izoxli lug'ati. – Т.: 2005.
- 3.7. Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. -Т.: San'at, 2010.
- 3.8. Семёнов А.А. Государственная публичная библиотека и фонда восточных рукописей Узбекистана ИИ Альманах Литературний. – Т.: 1995.
- 3.9. Sodiqova N. Muzeynoe delo v Uzbekistane. –Т.: Fan,1975.
- 3.10. Sodiqova Istoryografiya i istochniki po muzeynomu stroitkl'stvu – Т.: Fan, 1987.
- 3.11. G'ulomov Ya. O`zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o`rganish yo`llari. -Toshkent: 1934.
- 3.12. Юсупов М.С. 50 лет Самарканского музея (1896-1946 гг)-Самарканда 1948.
- 3.11. Фузаилова Г. Хасanova Музееведения – Т.: Фан, 2003.
- 3.14. Mirzaaliyev E. Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi: kecha va bugun. Farg'ona 2010.-100 b.
- 3.15. Mirzaaliyev E. Baxriddinov O. Tarix-ma`naviyat ko`zgusi. Namangan, 2006.
- 3.16. Mirzaaliyev E. Ulug' vatan urushi g'alabasiga Namanganliklarning qo`shgan hissasi. Namangan. 1990. - B.43.
- 3.17. Xurshid Davron. Samarqand xayoli (tarixiy va ma`rifiy badiyalar). –Т.: Sharq, 1991.
- 3.18. Mirzaaliyev E, Qoraboyev E. Noyob yodgorliklar-tariximiz guvohi. //Ta`lim va tafakkur. 2007, №3, -B.16-17.
- 3.19. Asqarov A, Anorboyev A, Matboboyev B. Qadimgi Farg'ona sirlari. // Fan va turmush. 1989. №1.